

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM USLUBIYOTI” KAFEDRASI

5111700 - boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi

4-KURS 14.16-GURUH TALABASI

ASADULLAYEVA NIGORA ABDURASHID QIZINING

ONA TILI O‘QITISH METODIKASI FANIDAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA
MA‘NODOSH SO‘ZLARNI O‘RGATISH METODIKASI**

Ilmiy rahbar:

S.Zokirova

2018 yil

Bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2018-yil 8-maydagi navbatdan tashqari yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

M.Abdupattoyev

Taqrizchilar: 1. _____
2. _____

MUNDARIJA

K I R I SH.....	4
------------------------	----------

I BOB. SO‘Z MA‘NOLARINING O‘ZGARISHI HODISASI

1.1. So‘z ma‘nolarining torayishi va kengayishi.....	14
1.2. So‘zlar ustida ishlash.....	19
1.3. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash usullari.....	31

II BOB. BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI DARSALARIDA MA‘NODOSH SO‘ZLARNI O‘RGATISH

2.1 So‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rganish....	36
2.2. Ma‘nodosh so‘zlar yuzasidan noan‘anaviy darslar joriy etish.....	44
2.3. Ma‘nodosh so‘zlarni o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov natijalari	51

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, bilim va ko'nikmalarini aniq shakllantirish "Kadrlar Tayyorlash milliy dasturi" da ko'rsatilgan talab va takliflar asosida amalga oshirilmoqda. Umumta'lim maktablarida ona tili darslarini o'qitishda o'quvchilar nutqini shakllantirish va rivojlantirish bosh maqsad hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, texnik vositalar o'qituvchining asosiy quroliga aylanishi shart. Shu nuqtayi nazardan, o'rta maktab ona tili darslarida leksikologiyani o'rgatish jarayonida o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, nutqini to'g'ri shakllantirish va o'stirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning bu bo'limi orqali o'quvchilar so'z va u ifodalaydigan leksik ma'nolarini, so'z ma'nolarining o'zgarishini, so'zning ma'no turlarining tilda qo'llanish qoidalarini puxta egallaydilar. Xususan, ma'nodosh so'zlarning ifodalaydigan ma'nolari, ularni maktab ta'limida o'qitishning o'ziga xos usul va metodlarini yoritish dolzarbligi bilan ajralib turadi. Bu esa kelgusida o'quvchilarning yetuk inson bo'lib shakllanishi uchun muhim omillardan sanaladi.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda har bir faoliyat o'zining so'nggi natijasi bilan o'lchanadi. Ona tili ta'limi uchun sarflangan mehnat ham so'nggi natija - o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmalarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasi bilan baholanadi.

Ona tili mashg'ulotlarida nutqning asosiy xom ashyosi - so'z ustida ishlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, so'zdan o'rinli va to'g'ri foydalanish malakalarini shakllantirish, so'nggi natija - nutq madaniyatini rivojlantirish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ishimizning dolzarbligi ham mana shu muammolarning yechimiga bag'ishlanganligi bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. So'z va uning ma'nolari haqida turlicha fikrlar hamda qarashlar bor¹. So'z ko'p qirrali murakkab butunlik bo'lib, dastlabki qarashda ikki tomoni ko'zga tashlanadi. Birinchidan, moddiy ifodalovchi - tovush tomoni, ikkinchidan ma'no tomoni. So'zning tovush tomoni tilshunoslikning fonetik- fonologik sathida tekshirilsa, mazmun tomoni o'z xossalariga, asoslariga ko'ra bir qancha sohalarning tekshirish obyekti bo'ladi.

Tildagi "maktab" so'zi moddiy jihatdan m, a, k, t, a, b kabi tovushlarning o'zaro ketma-ketligidan tashkil topgan butunlik bo'lganligi uchun fonetik- fonologik tahlil etiladi. Shu moddiylik asosidagi "maktab" so'zining obyektiv olamdagi biror bir predmet bilan bog'liq bo'lgan ma'nosi, ya'ni o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladigan "dargoh"ni ifodalashi leksikologiyada o'rganiladi.

"Maktab" so'zining "suv", "paxta", "tosh" so'zlar singari obyektiv borliqdagi predmetlik tushunchasini ifodalab, ot so'z turkumiga birlashishi grammatikada o'rganiladi. Ko'rinadiki, so'z ko'p qirrali murakkab butunlik hisoblanadi. Shuning uchun so'zning turli xususiyatlarini ochish va izohlashga qiziqishlar, urinishlar ko'p. Biz so'zning ma'no jilolarini hamda shu ma'no nozikliklar asosidagi qudratini ochishga harakat qilamiz.

Shubhasiz, so'z yuqoridagi xususiyatlari bilan bir butunlikni tashkil etadi. Tilshunos olim Nurmonov.A: "Ushbu butunlik o'zaro munosabatdorlikdagi a'zolarining aloqa majmuasidan tashkil topgan sistemadir,"- deya izoh beradi .

Sistema xuddi organizm singari bir-birisiz yashay olmaydigan uzvlarning murakkab qurilmasi hisoblanadi. Shuning uchun so'zning barcha qirralari yaxlit holda tekshirilmasa, chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham "So'z durdirkim, aning daryosi ko'ngildur"², - deb so'zning ikki xususiyatiga ishora qiladi. Haqiqatan, so'z dur-u gavhar singari insonning ko'ngil daryosida yashiringandir, deb fikr yuritadi. Navoiy so'zni imkoniyat sifatida til xazinasiga qarashli ekanligini ta'kidlaydi va

¹ M.Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Toshkent, 1960; A.Navoiy. Asarlar. Toshkent, 1967, 14-tom, - B.105; A.Navoiy. Hayrat-ul-abror. Toshkent. 1983, -B.7; A.Nurmonov va boshqalar. O'zbek tilining mazmunii sintaksisi. Toshkent, 1972. - B.126; M.Mirtojiyev, N.Mahmudov. Til va madaniyat. Toshkent, 1992, -B.81; H.Ne'matov, O.Bozorov. Til va nutq. Toshkent, 1993, -B.6-27; V.Vinogradov. Russkiy yazik. Moskva. 1986; V.B.Kasevich. Semantika. Sintaksis. Morfologiya. Moskva, 1988; A.Nurmonov. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992.

² A.Navoiy. Asarlar. 14-tom. Toshkent, 1967. -B. 105.

uning faoliyatini nutq bilan bog'laydi. Chunki so'z nutqiy jarayondagina faoliyat ko'rsatib, turlicha ma'nolarga ishora qiladi. Shuning uchun so'z haqidagi qarashlarning ko'pchiligida "belgi" ostida izohlangan.

So'z biror bir tushunchaning material ifodalovchisi - qobig'i bo'lib, inson ongidagi yoki umumiy bilish xazinasidagi tushunchalar silsilasiga ta'sir etadi va muayyan nutqiy sharoitda turlicha ma'nolar kasb etadi. Shu jihatdan so'z nomlash vazifasini bajaradi va o'zi anglatgan tushunchaning tabiatini va mohiyatini ko'rsatmaydi. Shu sababdan ma'no moddiy qobig' bilan birlashib, tushunchalar silsilasiga ta'sir etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bugungi kunda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda ona tili darslarini samarali o'qitish muhim hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf ona tili darslarida leksikologiya bo'limini o'rganish davomida o'quvchilarning savodxonligini oshirish va rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri o'stirish yo'llarini aniqlash asosiy maqsad hisoblanadi. Malakaviy ishning asosiy maqsadi: Boshlang'ich sinflarda «Ona tili» o'quv fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarga so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini batafsil tushuntirish va ko'nikma hosil qilish, xususan, ma'nodosh so'zlar ustida ishlash, bunday so'zlarni o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini takomillashtirishning samarali yo'llari, metod, vosita va usullarini aniqlash, lisoniy-didaktik omillarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning **obyekti** sifatida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf «Ona tili» darslarida ma'nodosh so'zlar ustida ishlash tanlandi. Ishning **predmetini** umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf «Ona tili» darslarida ma'nodosh so'zlar va ularni o'qitish jarayoni, ma'nodosh so'zlarni o'qitishda qo'llanadigan usullar, ularning vazifalari va didaktik-metodik xususiyatlarini o'rganish kabilar tashkil etadi.

Malakaviy ishning manbalari. Bitiruv-malakaviy ishimizning manbalari sifatida oldin bu sohada amalga oshirilgan metodik ishlar, umumta'lim maktablari uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalar, izohli lug'atlar, shuningdek, ishda asosan

mavzuni o'rganishga bag'ishlangan bir qator pedagog o'qituvchilarning tajribalari hamda ilmiy tadqiqot ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi. Tadqiqot ishimizda ilmiy-tadqiqot metodlaridan tahliliy, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy usullardan keng foydalanildi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'zlar ustida ishlash, so'z ma'nolarini tahlil qilish jarayonida, lisoniy-didaktik xususiyatlarini aniqlash uchun tavsifiy, tahliliy metod qo'llanildi. Olingan materiallar tasviriy metod asosida bayon qilindi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ma'nodosh so'zlarni o'rgatishda bu kabi so'zlarning ishlatilish maqsadini, o'rnini, uslubini o'rganish va zamonaviy metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Malakaviy ishning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ishini tashkil etish to'g'risida»gi qarori, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev hamda Birinchi Prezidentimiz

I.A.Karimovning ta'lim to'g'risidagi qarashlari, shuningdek, shu yo'nalishda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangiligi. Ishda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf ona tili darslarida leksikologiya bo'limini o'rgatish orqali o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini to'g'ri shakllantirish va o'stirish yo'llari yoritildi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, jumladan, ma'nodosh so'zlar mavzusini o'rgatishning metodlari, har bir ma'nodosh so'zlarni o'rganishda lingvistik asoslari daliliy misollar yordamida aniqlandi. Ma'nodosh so'zlar qamrovidagi masalalar faqat gap va uning turlarida ishlatilishidagina emas, ularning gap mazmuniga ta'siri, tilda tutgan o'rni ham o'rganildi. Shuningdek, maktab o'quvchilarining og'zaki va yozma savodxonligini to'g'ri shakllantirishda ma'nodosh so'zlarning ahamiyati ilmiy-metodik nuqtayi nazardan ochib berildi. O'rta maktablarda ona tili ta'limi mazmuni, prinsiplari, o'qitish usullari va metodlari belgilanib, ularni amalga oshirish yo'llari aniqlandi.

Shu bilan birga, o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini to'g'ri shakllantirishda ona tili mashg'ulotlarining amaliy qiymati va ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan yoritildi. Bu jarayonda o'quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinf hamda darslarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o'rganilgan va o'rganiladigan bilimlar o'rtasida aloqadorlikni ta'minlash muhim ekanligi e'tirof etildi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z ma'nolarini, xususan, ma'nodosh so'zlar ustida ishlash va uni o'qitish metodlarini o'rganishni yangi faktlar bilan boyitish, ma'nodosh so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari, jumladan, ularning boshqa so'z shakl va munosabatli turlari bilan aloqasi hamda uni o'qitishning samarali usullarini aniqlashda hamda kelgusida soha mutaxassislariga qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishimizning xulosa va natijalari ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, maqolalar yozishda, umuman, ilmiy adabiyotlar yaratishda kata ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu ish materiallaridan soha bo'yicha darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratishda ham foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'qish va o'rgatish jarayonida, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida fanni o'qitishda, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning pedagogik amaliyotni o'tashi jarayonida, ona tili o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirishda, maxsus kurslarni tashkil etishda asosiy va qo'shimcha manba sifatida qo'llanilishi mumkin. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, u ona tili fanidan leksikologiya bo'limini o'qitishda uslubiy jihatdan qiziquvchilar uchun katta amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish tarkibiga ko'ra kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi sahifani tashkil etadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda

nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak».³

Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatni kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Bu g'oyani, bizningcha, ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro'yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy-amaliy, ijtimoiy, ma'naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san'at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldiriladigan boyliklar);

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, vazifalari, tarkibi haqida so'z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavxumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilim metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur. Lekin bu ishlar o'z yechimini topganicha yo'q. Endigi vazifa darsliklarning keyingi nashrlarida bu kabi kamchiliklarni kuzatishdan iborat.

Tilshunoslikning bo'limi so'z va uning ma'nolarini o'rganish bilan shug'ullanganligi sababli o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda katta imkoniyatlarga ega.

Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'no ko'chish turlari, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma'nosi farq qiluvchi - paronim so'zlar, umumxalq ko'p ishlatadigan va kam ishlatadigan so'zlar, shevaga oid, tarixiy, yangi paydo bo'lgan va eskirgan, kasb - hunarga oid so'zlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi xodisalar bilan tanishiladi.

³ Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi». Toshkent, "O'zbekiston",

O'quvchilar nutqining go'zalligi, ta'sirchanligi, izchilligi dastlab ularning lug'at boyligi bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflardan boshlab akademik litsey va kasb - hunar kollejlarigacha bo'lgan davrda o'quvchilar o'rganadigan so'zlar lug'ati o'rganilishi, ana shu asosda so'zlar tanlanishi zarur.

Bunda bir qator xususiyatlar e'tiborga olinadi. Xususan: so'zlarning amaliy ahamiyati, ya'ni o'quvchilarning butun ta'lim jarayoni uchun ma'rifiy hamiyatga ega bo'lgan so'zlar;

- so'zlarning amaliyotda qo'llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo'llanishi;

- so'z ma'nosining to'la tushunilishi.

«Izchil kurs»ni o'rganishda - o'z va ko'chma ma'noli so'zlar orasidagi ma'noviy munosabatlar, ma'no guruhlari (uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli so'zlar kabi)ning ko'chma ma'noda qo'llanishi ustida ishlash o'quvchiga til sathlarini bog'lab o'rganish orqali lug'at xazinasini oshirishga va boyitishga imkon beradi.

Ona tili mashg'ulotlarida berilgan mashqlardagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari ustida ishlanadi.

Bog'larga namozgar salqini tushdi,

Gullar nam bargini qayirdi asta.

Oftob ham suv ichar tog'lardan pastda,

Loladek qip-qizil o't-shafaq uchdi. (U.Nosir)

Ushbu satrlarda yasama go'zallik yo'q tun bilan kunning o'zaro almashish daqiqalariga xos belgilarni payqab, tuyib, ko'rib, kun botishi bilan salqin tushishini nozik badiiy bo'yoqlarda, ko'chma ma'noda tasvirlanadi: «Oftob ham suv ichar tog'lardan pastda...», «Loladek qip-qizil o't-shafaq uchdi...» kabi.

Matn ustida ishlash mashqlaridan so'ng, o'quvchilarda mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

O'quvchilar hayvon va qush nomlari orqali insonga xos bo'lgan salbiy va ijobiy xususiyatlarni tavsiflash bilan o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ular shaxsni qanday baholash va tavsiflashni so'z birikmasi yoki gap qurish orqali izohlaydilar.

Topshiriq javoblari baholangach, madaniy va yovvoyi o'simlik nomlari, poliz ekinlari, uy-ro'zg'or nomlari kabi uyadosh so'zlardan lug'atlar tuzish; ularni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar qurish, matn yaratish, so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilganda, qanday ma'noni anglatayotganini tushuntirish talab etilsa, bolaning ijobiy tafakkur doirasi kengayadi, so'zlash mahorati rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, badiiy asarlarga tayanish yaxshi samaralar beradi. O'quvchilar e'tiborini so'z ma'nolarining doimiy yashash joyi - nutq jarayoniga qaratish nihoyatda dolzarb va zaruriydir.

Leksikologiya tilshunoslikning eng yirik bo'limlaridan bo'lib, u so'z va uning ifodalab kelgan ma'nolari xususida bahs yuritadi. O'quvchi bu bo'limni o'rganar ekan, so'zlarning ichki ma'no olamiga kiradi, ularning xilma-xil ma'nolari bilan yaqindan tanishadi, ma'no nozikliklari xususida tasavvurlari kengayadi. Shuning uchun mazkur bo'limni «So'zshunoslik deb ham atash mumkin»

Leksikologiya bo'limi so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, ma'nodosh, uyadosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, talaffuzi yaqin ammo ma'nosi boshqa-boshqa so'zlar, umumxalq ko'p ishlatadigan va kam ishlatadigan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar tarixiy va eskirgan so'zlar, atamalar, olinma so'zlar, iboralar va tasviriy ifodalarga oid materiallarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur bo'limni o'rganishda o'quvchilarning so'z ustida ishlash imkoniyatlari tilning boshqa sathlariga qaraganda ancha keng va xilma-xildir. Quyida ana shu imkoniyatlar xususida batafsilroq fikr yuritishga harakat qilamiz:

Til ijtimoiy hodisa bo'lgani sababli jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Zero, ona tili yangi avlod tarbiyasida muhim mavqega ega.

Chunki u:

- Shaxs o'zini va o'zgalarni anglashda yordam beradi;
- o'zi tarbiyalangan jamiyatni dunyoga tanitishda hissa qo'sha olishiga yordamlashadi;

- o'z xalqi tarixi, an'analari, milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, milliy merosini teran tushunishga yordam beradi;

- mustaqil fikrlay olishda va ijodiy fikr majmuini har qanday sharoitda o'zgalarga yetkazishda imkon beradi.

Ona tili ta'lim standarti kommunikativ modelga asoslangan ta'lim mazmunini belgilab beradi va umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyiladigan minimal talablarni aniqladi. Ta'lim mazmunining majburiy minimumida leksikologiyadan so'z va uning ma'nolari, so'zning ko'p ma'noligi, (polisemantizm), ma'nodosh va uyadosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, shakldoshlar va paronimlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi (5-sinf), akademik litseylarda ko'p ma'noli so'zlar, so'z ma'nolari taraqqiyoti, o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi (metafora), aloqadorlik asosida ma'no ko'chishi (metanimiya), butun va qismni ifodalash (sinekdoxa), vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi usullarini o'rganish va nutqda ko'p ma'noli so'zlardan foydalanish yo'llarini bilish ko'zda tutiladi (1-kurs).

Oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan yosh avlod ona tilidan mashg'ulotlarni maxsus tayyorgarliksiz davlat ta'lim standarti talablari asosida tashkil qilishda qiynaladilar. Buni hisobga olgan holda, oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqichidayoq, ona tiliga ajratilgan barcha mashg'ulotlarda mustaqil ishni namunali tashkil etish; bir fikrni turli shakllarda ifodalay olishga o'rgatish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, aniq xulosalar chiqarish ko'nikmasini egallashlariga zamin hozirlash zarur.

Nutq - tilning yashash, zuhr etish va amal qilish shakli. Uning shakllanishi va rivojlanishida o'zgalar nutqini qabul qilish va tushunish, bilganlarini o'zgalarga yetkaza olishi alohida o'rin tutadi. Shunday ekan, ona tili ta'limi oldida turgan mustaqil tafakkur qilish, ijodiy fikrlash, uning mahsulini sharoitga mos ravishda og'zaki va yozma holda to'g'ri, ravon, go'zal ifodalash ko'nikmalarini malakalarga aylantirish kabi bosh maqsadni bajarishga tayyor bo'lishlari zarur.

Pedagogik amaliyot va mustaqil faoliyat ko'rsatish jarayonida o'quvchi-talabalarni mustaqil ijodiy fikrlash orqali so'z zahirasini oshirish va boyitish, fikrni

aniq, ixcham, ko‘rkam ifodalash, og‘zaki va nutqiy malakalarini shakllantirish, tilning har bir bo‘limini aloqadorlikda o‘rganishi kommunikativ savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynashining shohidi bo‘lamiz.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganish, so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari ustida ishlash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llashni o‘rganish yaxshi natija berishini amalda sinab ko‘rdik va kasbdoshlar bilan o‘rtoqlashishni dolzarb vazifa, ya’ni masala deb belgiladik.

Malakaviy bitiruv ishiga mavzu tayyorlashda ma’nodosh so‘zlar ustida ishlash, ularning turli nutqda qo‘llanganda qanday ma’no bildirishini anglab yetgan o‘quvchilar go‘zal nutq sohibi bo‘lishiga oz bo‘lsada hissa qo‘shganimiz turtki bo‘ldi.

I BOB. SO‘Z MA’NOLARINING O‘ZGARISHI HODISASI

1.1. So‘z ma’nolarining torayishi va kengayishi

Ma’noning torayishi va kengayishi kabi lingvistik hodisalar tilshunoslikda o‘ziga xos tarzda tadqiq etilgan⁴. Bu hodisa, ayniqsa, leksikologik sathda atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, ko‘pchilik ishlarda leksik ma’no doirasida tahlil etilgan. Aslida ma’no umumlashma tarzida har qanday butunlik uchun o‘ziga xos bo‘lgan xususiyat bo‘lib, tilning barcha sath elementlariga dahldor hodisa hisoblandi. Chunki dialektik qonuniyatda shakl mavjud ekan, uning ma’no-mazmuni ham mavjud bo‘ladi. Shuning uchun har qanday shakl ostida muayyan ma’no yotishi uzoq davrlardan buyon hammani qiziqtirib kelgan. Ma’no tilshunoslik, mantiq, falsafa, psixologiya, semiotika, adabiyotshunoslik kabi fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi va bu fanlar ma’noga xilma-xil yondoshadi hamda turli tomondan tadqiq etadi.

Ma’noning o‘zgaruvchanlik xususiyati fanda isbotlangan. Uning o‘zgaruvchanligi torayish va kengayish tabiatidan kelib chiqib izohlanadi. Chunki ma’no torayganda ham kengayganda ham muayyan o‘zgarishga uchraydi. Bunday o‘zgarish ma’noning dialektik xususiyatini, lingvistik tabiatini belgilaydi. Ma’noning o‘zgaruvchanligi muayyan asoslar ta’sirida yuzaga keladi. O‘zgaruvchanlikning yuzaga kelishiga ekstralingvistik, lingvistik, psixologik asoslar ta’sir etadi.

Tilshunoslikda ma’no til belgisining predmetga bo‘lgan munosabati asosida - denotativ ma’no, til belgisining tushunchaga bo‘lgan munosabati tarzida - signifikativ ma’no, til belgisining nutq vaziyati hamda so‘zlovchi va tinglovchiga bo‘lgan munosabati asosida - pragmatik ma’no, til belgilarining muayyan sohaga munosabati tarzida - stilistik ma’no, til belgilarining boshqa til belgilariga bo‘lgan munosabati asosida - struktur ma’no, til belgisining psixologik hodisalarga munosabati asosida - psixologik ma’no kabi turlarga ajratiladi. Ma’noning bunday

⁴ Nurmonov.A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992 y, 10-20 betlar; Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T., 1995; Apresyan Yu.D. Sovremenniy metod izucheniya znacheniy i nekotoriye problemi strukturnoy lingvistiki; SB. Problemi strukturnoy lingvistiki. M.,1963; Stepanova M.D. Metodi sinxronnogo analiza leksiki. M., 1968; Novikov L.A. Semantika russkogo yazika. M., 1982; Vasilyev L.M. Sovremennaya lingvisticheskaya semantika. M., 1990 ; Vasilyev L.M. Sovremennaya lingvisticheskaya semantika. M., 1990.

turlarga ajratilishi uning o'zgaruvchanlik, ko'pqirralik tabiatiga va xilma- xil asoslarning ta'siriga ko'radir. Bundan tashqari tovushlarning ma'nosi, leksik ma'no, grammatik ma'no, (morfologik va sintaksis) tarzida ham ajratiladiki, bu uning ko'p sathli ekanligidan dalolat beradi. Shunday ekan, biz ushbu ishda leksik ma'no doirasidagi ma'noning torayishi va kengayishining pragmatik xususiyatlariga e'tiborni qaratmoqchimiz.

Ma'noning torayishi va kengayishiga dastlab, lingvistik asoslar, ikkilamchi tarzda ekstralingvistik asoslar ta'sir etadi. Lingvistik asoslarni butun leksik sistema hodisalari tashkil etadi. Ayniqsa metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, troplar, simfora, giperbola, litota, epitet, ironiya, perifraz, o'xshatish, polisemiya, monosemiya, okkozionalizm, konversiyalar, enantiosema kabi hodisalarning ta'siri orqali ma'noning o'zgarishi o'ziga xos tarzda kechadi. Shuni unutmash kerakki, ma'noning o'zgarishiga bir vaqtning o'zida ham lingvistik, ham ekstralingvistik asoslar ta'sir etadi.

Ekstralingvistik asoslarni psixologik, sotsial, prosodik, geografik, ijtimoiy, nutqiy vaziyat va nutqiy jarayon, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabat kabilar tashkil etadi. Ma'noning torayishi va kengayishining - pragmatik xususiyatlarini ekstralingvistik asoslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shuning uchun bu hodisaning o'ziga xos xususiyatini faqat lingvistik tomondan emas, balki pragmatik tomondan ham tahlil etish zarur.

Hozirgi davr tilshunosligida mazmunliy maydon va ideomatik bo'linish kabi hodisalar ham ma'noning o'zgarishiga ta'sir etuvchi asoslar tarzida izohlanmoqda . Umumiy holatda ma'noning o'zgarishiga juda ko'p asoslarning ta'siri pragmatik jihatdan bo'ladi.

Leksik ma'no assotsiativ-tematik maydonni pragmatik jihatdan tashkil etadi. Shuning uchun tayanch ma'no bilan bog'lanish muayyan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, geografik muhit, yashash tarzi asosida kechadi.

Masalan: Ro'molcha so'zi leksik jihatdan muayyan o'lchamda turli xil materialdan tayyorlangan artkichni bildiradi. Lekin uning assotsiativ-tematik maydonni tashkil etish yuqoridagi asoslar ta'sirida nihoyatda kengayib ketadi.

	Rashk
	Taqdir
	Muhabbat
	Shubha
	Men
	Ajralish
	asos (ashyoviy dalil)
	Yodgorlik
	Tarix
	to'siq (oftobdan)
	hissiyot (hayajon)
	Madaniyat
	Bezak
	yelpig'ich
	Bint
	sovg'a
	Salfetka
	Sir
	Matoh
	Qaytim
	san'at asari
Ro'molcha	Parol
	ko'z Yoshi
	Xurofot
	Eslatish
	Ramz
	Tilak
	Oqlik

	Artkich
	Fojea
	Afsona
	Kir
	Foks
	she'r
	Sabr
	Boyluk
	tashvish-quvonch
	Tutqich
	arg'amchi
	Gender
	Jirkanish
	Gigiyena
	Piktografiya
	Talisman
	isitma-sovitma
	Qadriyat
	Sen
	Orzu
	yaxshilik-yomonlik
	Dard
	Yoqa
	Hamyon
	Qalb
	Qalin
	Tovar
	Ehtiyoj

Bunday kengayishni yanada davom ettirish mumkin. Bunga chegara qo'yib bo'lmaydi. Ro'molcha so'zi tashkil etgan assotsiativ-tematik maydondagi har bir so'z qaysidir semasi yoki pragmatik ma'nosi bilan ro'molcha so'ziga bog'lanadi. Bunday bog'lanish ikki jihatdan bo'ladi. Umumiy tarzda lingvistik va ekstralingvistik. Xususiyl tarzda esa har bir so'z bilan muayyan bog'lanish semasi metaforik, metonimik, sinonimik, omonimik, antonimik va hokazo jihatdan bo'ladi.

Masalan: Ro'molcha - rashk so'zlarining bog'lanishi yoki ro'molcha so'zi orqali rashk ma'nosining ifodalanishi quydagi asoslarga bog'lanadi:

1. «Otello» tragediyasidagi voqea orqali.
2. Gender munosabat orqali.
3. Urf-odat orqali.
4. Ijtimoiy muhit orqali.
5. E'tiqod orqali.

Bu asoslar ekstralingvistik asoslar hisoblanadi. Lingvistik jihatdan metonimiya orqali bog'lanadi. Ro'molcha so'zining rashk ma'nosini ifodalashi birlamchi tarzda lingvistik asoslar orqali yuzaga chiqsa, ikkilamchi tarzda ekstralingvistik asoslar yordamida anglashiladi. Shuning uchun ekstralingvistik asoslarni lingvistik asoslarni kuzatib boruvchi, yordamchi vositalar deyish mumkin. Lekin ikkilamchi vositalarsiz ro'molcha so'zi orqali rashk ma'nosini tushunish imkoniyati cheklanadi. Shuning uchun ikkala asoslarni ham o'ziga xos tarzda pragmatik jihatdan tadqiq etish zarur. Buning uchun ro'molcha so'zi bilan bog'langan ma'nolarning har birini ham nutq, ham til sathida tahlil etish kerak.

Ro'molcha so'zining o'zaro rashk so'ziga bog'lanishi metonimik jihatdan bo'lsa, uning nutqiy jarayonda olgan boshqa ma'nolari pragmatik jihatdan yuzaga keladi.

Pragmatik jihatdan olgan ma'nolari o'ziga xos tarzda assotsiativ-tematik maydonni tashkil etadi va turli ma'nodagi presuppozitsiyalarga ishora qiladi.

O'shga ro'molchani bog'lab keldim, endi qo'yni yaxshiroq boqish kerak («Sharq yulduzi») gapida «ro'molcha» so'zi orqali quydagi presuppozitsiyalar anglashiladi.

1. O'shdagi aziz joylardan biriga borgan.
2. O'shdagi aziz joylardan birida niyat qilgan.
3. Niyati ro'molcha tarzida biror daraxtga bog'lagan.
4. Niyati shu joyda qo'y so'yish bo'lgan.

Bunday presuppozitsiyalarning tushunilishiga milliy urf-odat, e'tiqod, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat, nutq vaziyati kabilar yordam beradi. Ushbu gapdan anglashilgan presuppozitsiyalarni umumiy bilish fanida e'tiqod birligi, urf-odatlar birligi bo'lgan kishilargina tushunadi. Boshqa-boshqa e'tiqoddagilar tushunmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, ma'noning torayishi va kengayishi pragmatik jihatdan bo'ladi hamda tagma'no, presuppozitsiya kabi hodisalar orqali tushunilish imkoni yaratiladi.

1.2. So'zlar ustida ishlash

Tilimizda ayrim so'zlar o'zlariga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatdan o'xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko'ra ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlar kabi guruhlariga bo'linadi.

So'z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko'pqirrali. Shunga erishish lozimki, o'quvchi yangi va notanish so'zga e'tiborsiz bo'lmasin. Uning ma'nosini anglashga harakat qiladigan bo'lsin.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari ustida ishlashda ma'nodosh so'zlar guruhlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'nodosh so'zlar tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o'rinli foydalanilsa, fikrni ravon, go'zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, so'zdan to'g'ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

Og'zaki hamda yozma nutqni ma'nodosh so'zlar bilan boyitishda quyidagi leksik ma'no guruhlariga ajratish usullaridan foydalanish mumkin.

Kulgi-yu tabassum Ollohning insonga bergan betakror marhamitidirki, bu hislat na hayvonot dunyosida, na parranda-yu darandalarda uchraydi. Inson qiyofasidagi shodmonlik belgisi faqat insongagina xos.

Kulgi-yu tabassum bebaho gavhardir, inson qalbining yuzdagi in'ikosidir, u yurak sog'inchlarini izhor etib turadi...» (Mirmuhsin)

- matndagi yangi yoki sizga tanish bo'lmagan so'zni belgilang, uning ma'nosini izohlang.

- matnda ajratilgan o'z va ko'chma ma'nodagi so'zlarning uyadosh va ma'nodoshlarini toping.

- ma'nodosh so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan ma'noni belgilang.

- ma'nodosh so'zlarning ma'no nozikliklarini aniqlang.

- ulardan foydalanib, matn yarating. O'quvchilarning bu sohadagi bilim va malakalarini kengaytirishda qator usullardan foydalanish mumkin:

- ma'nodosh (sinonim) so'zlar qatorini tuzing.

Bunda darslikdagi muayyan mashqda berilgan so'zga o'quvchilar ma'nodosh sinonim so'z izlashadi. Bunday mashq materiali sifatida o'qish darsligiga murojaat etish mumkin.

Yoki o'qish darsligidagi muayyan so'zning ma'nodoshlarini ayni matnning o'zida topilishi ham qiziqarli mashg'ulot bo'la oladi.

Ijodiy ishning yana bir turi saylanma diktant tarzida o'tkazilishi mumkin. Bunda matn yoziladi, undan faqat sinonim (ma'nodosh) so'zlarga ko'chirib yoziladi xolos.

Ma'nodosh so'zlar ustida ishlashning shakl va usullari ham xilma - xil bo'lishi mumkin. Ularning eng keng tarqalganlarini eslatish joiz.

Bunday amaliy ishlar nutqni ma'nodosh va uyadosh so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilar so'z boyligini oshirishda ma'nodosh so'zlar bilan qiyoslab boshqa ma'noli so'zlarni o'rgatish ham o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, zid ma'noli, ko'p

ma'noli so'zlar, shakldosh, paronim so'zlar ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega.

Zid ma'noli so'zlar nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Ulardan foydalanish usullari xilma - xildir:

- Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar tanlash: katta - ..., xursand - ... , tez - ... , hunuk - ... , oq - ... olmoq - ... , kelmoq - ... kabi.

- zid ma'noli so'zlarning ma'nosini sharhlash; ma'nosiga ko'ra (kichik, xafa, sekin, chiroyli, qora, bermoq, ketmoq ...) qavs ichida berilgan so'zlardan mosini tanlab ko'chirish.

- Kecha - kunduz, oq - qora, yosh - qari, katta - kichik kabi juftliklar ma'nosini aniqlash, ular ishtirokida gap tuzish va matn yaratish kabi amaliy ishlar bilan shuullanish, shu asosda o'quvchilar so'z boyligini oshirish.

Nutqni zid ma'noli so'zlar bilan boyitishda xalq maqollarining o'ziga xos o'rni va vazifasi bor. O'quvchilar «O'zbek xalq maqollari», «Aql aqldan quvvat oladi», «So'z ko'rki - maqol» kitoblaridan zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan maqollarni ajratadilar va ma'nosini sharhlaydilar.

Masalan: «Yaxshidan yetar sharofat, yomondan yetar kasofat», «Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib», «Yaxshilardan hargiz chiqmas yomonlik, asli yomon bo'lsa, qilmas yaxshilik», «Yomonga bosh bo'lguncha, yaxshiga yo'ldosh bo'l», «Yomondan qoch, yaxshiga quloq och» kabi maqollar ma'nosini sharhlash, ma'lum bir mavzuga oid maqollar topish va yozish ham qiziqarli, ham samarali usullardan biridir.

Berilgan ma'nodoshlarga zid munosabatda bo'ladigan qator hosil qilish ham so'z boyligini oshirishda yaxshi foyda beradi.

Namuna: Bu ertakni barcha o'qishi kerak.

- Bu ertakni katta - kichik o'qishi kerak.

Turmush g'avg'olaridan xabardor - Turmushning issiq - sovug'ini bilgan kabi.

Zid ma'noli so'zlar ko'proq sifat va ravish so'z turkumlaridan hosil bo'ladi.

Ular:

- so‘z birikmasi tarkibida: baland bino - past bino, oq marmar - qora marmar kabi.

- butun bir birikmada: baland bo‘yli semiz kekxa ayol - past bo‘yli oriql yosh ayol; qalin muqovalil (jildli) katta kitob - yupqa muqovalil (jildli) kichik kitob kabi;

- ba‘zi birikmada zid ma‘noga ega bo‘lgan so‘z boshqa birikmada aynan shu ma‘noni bildirmasligi ham mumkin.

Solishtiring: qalin daftar - yupqa daftar ammo qalin soch - yupqa soch emas, siyrak soch; issiql havo - salqln havo, ammo issiql suvl - salqln suvl emas, sovuql yoki muzdek suvl kabi;

- so‘z zid ma‘noli juftiga ega bo‘lmaganda, yasovchi qo‘shimchani qo‘shish bilan zid ma‘noli tushunchalarni ifodalash usulidan foydalanish orqali so‘z boyligini oshirish mumkin: ma‘noli - ma‘nosiz, bema‘ni - bama‘ni kabi.

Zid ma‘noli so‘zlarning ma‘nosi, tuzilishini bilish narsa va hodisalar orasidagi farqni to‘g‘ri ajrata olish imkonini beradi.

So‘zning shakl va ma‘nolarini belgilashda ayni bir so‘zning ma‘nodoshlari va zid ma‘nolilarini kontekstda qiyoslash ham o‘quvchida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga katta yordam beradi.

Sovuql va issiql so‘zlari o‘z shakldoshlari va zid ma‘nolilariga ega:

- issiql havo - sovuql havo,
- qaynoql suvl - muzdek suvl,
- qaynoql hayot - soqln hayot,
- tinchl mamlakat - notinchl mamlakat,
- xush xabar - noxush xabar ...

Shoir va yozuvchilar voqelikni, narsa - hodisalarning xususiyatlari, sifatini bir - biriga qarama - qarshi qo‘yib tasvirlashda zid ma‘noli so‘zlardan foydalanadilar.

Bor ekan dunyoda issiql va sovuql,
Bor ekan dunyoda nur va ko‘lanka,
Bor ekan dunyoda saxiy ila suql,
Shoirlga muhtojdir el - elat, o‘lka!

(Shuhrat) buyum, voqea - hodisa, tushunchalarni anglatadi. Ko‘pincha, tovush tarkibiga ko‘ra shakldoshlar bilan ko‘p ma’noli so‘zlarni ajrata olmaslik hollari uchraydi.

Ayrim so‘zlar o‘zlarining asl ma’nolaridan boshqa ma’nolarga ham ega bo‘ladi. Chunonchi, inson organizmidagi a‘zo nomlari: bosh, ko‘z, qosh, yuz, burun, og‘iz, til, qo‘l, oyoq, quloq va hokazolar o‘zining asosiy leksik ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarda ham ishlatiladi; ularda ichki ma’no «ip» lari saqlanadi.

Masalan: bosh - organizmning bosh qismi - boshqaruvchi ma’nosini anglatadi va xuddi shu ma’no bosh maqola, so‘z boshi, yo‘l boshi, suv boshi, ish boshi, bir bosh uzum kabi so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlarda saqlanadi.

Natijada, lug‘atimiz tarkibida shakli bir, ma’nosi turlicha so‘zlar paydo bo‘ladi. Shakldoshlik va ko‘p ma’nulilik orasida farq ham mavjud:

- shakldoshlarda so‘z ma’nolari bir - biriga o‘xshamaydi.

ko‘k - o‘simlik, rang, osmon, motam libosi;

olma - daraxt, meva, buyruq fe’li kabi.

Keldi bahor, pishdi tut (meva)

Tut yesang, shunday ish tut (daraxt)

Chug‘urchiq kelishin kut,

Bekorga sinmasin tut (daraxt)

Ushbu tuyuqda tut - meva, ish tut - ish qil - buyruq fe’li, tut - mevali daraxt turi ma’nolarida ishlatilgan va mazkur so‘zlar nutqni ravon, qiziqarli, ta’sirli bo‘lishiga xizmat qilgan.

- ko‘p ma’noli so‘zlarda so‘z ma’nolari bir - biriga yaqin va aloqador bo‘ladi: ko‘z - ko‘rish a‘zosi, uzukning ko‘zi, derazaning ko‘zi, taxtaning ko‘zi, ishning ko‘zi kabi;

- shakldoshlarning uslubiy jihatdan nutqda ikki xil anglanishi tushuncha doirasini kengaytiradi: yuragiga o‘t tushdi- yuragi yondi.

Nutqda bir o‘rinda so‘z, ikkinchisida so‘z birikmasini qo‘llash bilan so‘z o‘yini yuzaga kelishi shakldoshlarda ham mavjud:

1. Sotuvchi do‘konda qirq ishni o‘ylar,

Savdoda bo‘y - endan qirqishni o‘ylar. «Qing’irlik qilmagin!» - degan kishining

Darhol qadamini qirqishni o‘ylar. (Gazetadan) Yoki:

2. Deydilarki, kungaboqar Umr bo‘yi kunga boqar.

Yuqoridagi birinchi to‘rtlik - tuyuqda qirqish-«son+ot», qirqish-fe’l, qisqartirish, qadamini qirqish - fe’l, haydash ma’nolarida ishlatilgan.

Ikkinchi matnda kungaboqar - ot, o‘simlik, hamda «ot+fe’l+ar» birikmasi shakldoshlardir.

Shakldoshlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan xalq og‘zaki ijodida, badiiy adabiyotda poetik janr - tuyuq tuzishda keng foydalaniladi.

Shakldosh so‘zlarni chuqur o‘rganish o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda, nozik qochirimlardan foydalanish, ijodiy tafakkur qilishda, mustaqil fikrni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tovushlar soni va turi jihatdan teng bo‘lmasa - da, talaffuzda o‘xshash bo‘lgan paronimlar shakldoshlarga ko‘p jihatdan yaqin turadi. Paronimlarni shakliy, ma’noviy hamda qo‘llanishi doirasida quyidagi ma’no guruhlariga ajratib o‘rganish yaxshi natija beradi:

- bir ikki, ba’zan undan ortiq tovushga ko‘ra qisman farqlanuvchi shakliy umumiylikning mavjudligi: tahlil- tahrir, matbuot - matlubot, taqlid - tahlit kabi.

- paronim juftliklar o‘rtasidagi tovush almashtirish va ma’no munosabatining turli xilligi: arosat - asorat, arluvon-armulon kabi;

- leksik ma’nolarida umumiy semantik qirralar mavjudligi: tanglay - manglay, kift - kaft, jiyrón - jayron kabi;

- leksik ma’nolari nisbatan yaqinligi, o‘xshashligi: mahrum - marhum, taomil - tamoyil kabi;

- ma’lum tomonlari bilan ma’nodosh munosabatda bo‘lishlik: bekinmoq - biqinmoq, nihon - pinxon, kurtak-murtak kabi;

- zidlanishdagi ma’lum umumiylik hollari: e’tiroz-e’tirof, bema’ni - bama’ni, import - eksport kabi.

Paronimlarni nutqda xato qo'llash, juftliklarni qorishtirish so'z ma'nolarini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. O'qituvchi bunday xatoning oldini olish uchun mashg'ulot jarayonida shakliy, ma'noviy bir - biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan paronimlar ma'nosini sharhlash, ularni so'z birikmasi va gap ichida qo'llash amaliy ishlardan foydalanishi nihoyatda zarur.

Namuna: Matbuotda hikoya e'lon qilindi - matbuot- iste'mol hamkorligi, keng iste'mol mollari; asorat - qoldiq, shamollash asorati, yomon asorat - arosat - ikkilanmoq, ikki yo'l orasida (arosatda) qolmoq; bog'cha - kichik bog' – bog'cha-maktabgacha tarbiya maskani; o'qituvchi mehnatiga tahsin aytmoq- Alisher Hirot va Mashhadda tahsil ko'rdi.

Xullas, o'quvchining nutqiy taraqqiyotida shakldosh, paronim so'zlarning har biriga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, ular ishtirokida so'z birikmasi va gap tuzish, so'z o'yinlari tashkil qilish, tuyuqlar va hikmatli so'zlar, maqol va matallar ustida ishlash; turli izohli lug'atlardan foydalanib, so'z ma'nolarini sharhlash, xilma - xil iboralar, matnlar yaratish kabi amaliy ishlarni bajarish o'ta foydalidir.

Kam ishlatiladigan so'zlar ustida ishlash berilgan so'zlarni fanlarga oid, kasb - hunarga oid, shevaga oid, tarixiy so'zlar kabi guruhlariga ajratish, guruhlarni mustaqil davom ettirish, shunday so'zlar ishtirokida matnlar yaratish, asosiy e'tiborni kam ishlatiladigan so'zlar ma'nosi va nutqda qo'llanishiga qaratilishi darkor. Atamalar (terminologiya) shunday so'zlar jumlasiga kiradi.

Atamalarning qaysi fanga mansubligiga ko'ra guruhlariga ajratish, so'z va atamalar orasidagi munosabatni aniqlash (til-anatomiya atamasi; til - muloqot vositasi, ona tili faniga oid atama; izlirindek dilni tilgan (sifatdosh) o'ylar ... kabi); uyadosh atamalar yordamida matn tuzish kabi topshiriqlarni bajarish lozim.

1. Ma'lum bir fan sohasida tor, xususiy ma'noga ega bo'lib, ko'pchilik boshqa ma'noda keng qo'llanadigan so'zlar toping. Tor va keng qo'llanish ma'nolari doirasida gaplar tuzing.

Namuna: quyosh sistemasining to'rtinchi sayyorasi - Yer. Osmon uzoq, yer qattiq (M.) Sen yerni boqsang - yer seni boqadi. Dehqon rizqini yerdan topadi.

2. «Geografiya», «Matematika», «Tabiatshunoslik» darsliklarining ma'lum bir betini sinchiklab o'qing.

Ularda xususiy, tor ma'noda qo'llanilgan va keng qo'llanishda boshqa ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing. Ularning ma'nosini tushuntiring.

Har bir fan uning o'zigagina xos bo'lgan, muayyan atamalar tizimiga ega. Shunday ekan, ularni bilish, tushunish, keng va tor ma'nolarini farqlay olish, to'g'ri ishlatish bilan birga fan, kasb - kor uchun xos bo'lgan atamalar sirasini o'zlashtirishlariga erishish mashg'ulotlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak.

Atamalarni o'rganishda o'quvchilarga tanish va yaqin bo'lgan kasb - hunarga oid so'zlar lug'atini tuzish, ularni izohlash va shu so'zlar ishtirokida matnlar yaratishga oid topshiriqlarni bajarish samarali natija beradi.

Boshqa tillardan kirib, o'zbek tiliga o'zlashib qolgan so'zlar olinma so'zlar hisoblanadi. Ularni og'zaki va yozma nutqda bimalol ishlatish uchun ular anglatgan ma'no o'quvchilar ongiga singdirilishi zarur. Ayniqsa, ilmiy atamalar borasida olinma so'zlar muhim mavqega ega. Aniq fanlarga xos «kvadrat», «kub», tilshunoslikdagi «morfologiya», «sintaksis», «leksikologiya», kundalik turmushida ishlatiladigan EHM, kompyuter, disket, kasseta kabi atamalarni almashtirish o'zbek xalqini jahon madaniyatidan uzishga olib kelmasligi lozim.

Tilimizda maktab, maorif, mashq, tolib (talaba) kabi arabcha; barg, daraxt, shirin kabi tojikcha - forsha; lag'mon, shiypon kabi Xitoycha so'zlar mavjud; rus tili va u orqali boshqa xorij tillaridan kirgan stol, stul, ruchka, buxgalteriya, soldat (nem.), palto, triko (frans.), klub, futbol, biznes, kompyuter (ing.), tomat, limon (isp.) kabi atamalar ham keng iste'mol qilinadigan va o'zlashgan so'zlar qatoriga kiritiladi.

Bunday so'zlarning ma'nosini sharhlash, imlosi va ma'nosi ustida ishlash, ular ishtirokida gaplar tuzish va turli matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan dars jarayonida unumli foydalanish mumkin. Turli sohalar bo'yicha olinma so'zlarning ro'yxatini olish, ma'nolari ustida ishlash kabi amaliy ishlar uyg'unlikda olib

borilsa, u o'quvchilar so'z boyligini oshirish, ularning nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nutqimizda kvadrat, kub, grammatika, leksika, stol, stul, shkaf, palto, kostyum, tufli, botinka, traktor, kombayn, rektor, universitet, professor, kompyuter, multi - media, kodoskop kabi ko'pgina so'z va atamalar borki, ularni boshqa so'zlar bilan almashtirishga hech qanday ehtiyoj ham, zururat ham yo'q.

O'quvchi lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil qilgan ekan. Ma'nosi va qo'llanishi jihatdan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasi iboralardir. U nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir. O'zbek tilini o'qitish metodikasida berilgan so'zlarni iboralar bilan (yoki aksincha) almashtirish, ular ma'nosini sharhlash ma'no darajalarini oshirib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

- | | |
|---|--|
| 1. Tadbirkor o'z ishini yaxshi biladi. | 1. Tadbirkor ishning ko'zini biladi. |
| 2. Onamning jahli chiqdi. | 2. Onamning sabr kosasi to'ldi. |
| 3. U ishni yaxshi bajardi. | 3. U ishni xamirdan qil sug'urganday bajardi. |
| 4. Masalani yechishda Shahlo juda qiynaldi. | 4. Masalani yechishda Shahloning ona suti og'ziga keldi. |

Bundan tashqari, o'quvchilarga ona tili mashg'ulotlarida iboralar lug'atini tuzdirish, iboralarga zid ma'noli, muqobil ibora yoki so'z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanishni o'rgatish ham so'z boyligini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida iboralar ustida ishlash yuzasidan bajariladigan mashqlardan namunalar beramiz.

O'quvchilar badiiy asarlarni o'qiyotganda uchragan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli, iboralar ma'nosi sharhlangan izohli lug'at daftari tutsalar va mazkur so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzsalar, so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratni shakllantirishda yaxshi natijalarni qo'lga kiritadilar.

Tasviriy ifodalar (po'lat ot chavandozi, zangori kema kapitani (mexanik - haydovchi o'rnida); zangori ekran, oynayi jahon (televizor); qanotli do'stlar

(qushlar); oq oltin (paxta) dan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlovchi asosiy usullardan biri hisoblanadi.

Bunda narsa yoki shaxs nomlarini tasviriy ifoda orqali berish yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma'nolarini sharhlash, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish foydalidir.

Leksikologiyani o'rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishda so'zning botiniy, lug'aviy ma'nosini tavsiflash shu jarayonda to'g'ri va o'rinli so'zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi.

So'zlarni leksik tahlil qilish yuzasidan namunalar keltiramiz.

1 - topshiriq. Viloyat so'zining lug'aviy ma'nosini sharhlang.

Viloyat - mamlakatning muayyan bir millat vakillari istiqomat qiladigan qismi, bo'lagi, yashash joyi; Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati

2. Ma'nodoshlari: hudud, vodi, depara, manzil va hokazo

3. Bugun respublikamizning Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida havo issiq bo'ladi.

O'quvchi leksik tahlil jarayonida so'zning lug'aviy ma'nolari haqida o'zi mustaqil fikr yuritadi. Shu so'zga ma'nodoshlarni o'zi izlaydi, iloji bo'lsa, boshqa tildagi tarjimasini topadi. Shu so'z ishtirok etgan gap quradi va matn yaratadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ravon, aniq, ta'sirchan uslub tuylusi tilning barcha sohalarini o'rganish jarayonida, til birliklarida (tovush, so'z, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik qurilmalarda), so'zlarning ma'no va shakl munosabatlari asosidagi bog'lanishlarni taqqoslash zaminidagina shakllanadi. O'quvchi ongida ana shu xususiyatni tarkib toptirish barcha o'qituvchilarning diqqat markazida bo'lishi lozim. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlarining bosh maqsadi so'z boyligini oshirish va uni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, til bo'limlarini o'rganishni uslubiyat bilan bog'liq holda olib borish taqozo etiladi.

So'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llash. Ma'lumki, o'quvchilar «Izchil kursga kirish» bo'limini o'rganishda ilk bor so'zning o'z va ko'chma

ma'nolariga duch kelishadi., ular ayni vaqtda so'zlar orasidagi ma'noviy munosabatlar yuzasidan o'tilgan mavzular asosida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. Bu bosqichda ana shu tasavvurlar kengaytiriladi, rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Berilgan so'z birikmalarida (masalan: *temir buyum- temir iroda, tosh yo'l- tosh yurak, sovuq havo- havo sovuq, sog'lom odam- sog'lom muhit v.h.*) o'z va ko'chma ma'noli so'zlarni qiyoslash, ko'chma ma'noni asoslash, berilgan so'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llab so'z birikmalari hosil qilish, o'z ma'nosidagi va ko'chma ma'nodagi so'zlar yordamida gaplar tuzish, daraxt, hayvon, qush nomlari, shuningdek, qarindoshlikni ifodalovchi so'zlarni qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar hosil qilish, matnlar yaratish kabi ijodiy - amaliy ishlardan foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyida ana shu ijodiy amaliy ishlardan ayrim namunalar keltiramiz.

1-topshiriq. *Temir, oltin, kumush* kabi so'zlarni xotiralaganingizda ko'z oldingizga nimalar keladi?

Bu so'zlar ko'z oldingizga kelgan ma'noda qo'llanilgan so'z birikmalarini bir ustunchaga ajratib yozing.

1-topshiriq. *Qo'y, ilon, burgut, gujum, chinor* so'zlarini o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llab, gaplar tuzing. Bu gaplar orasidagi ma'no nozikligini sharhlang.

2-topshiriq. She'rni o'qing. Ajratilgan so'zlarning o'z yoki ko'chma ma'noda qo'llanilganligini tushuntiring. Agar ajratilgan so'zlar o'z ma'nosida bo'lsa, ularni ko'chma ma'noda, ko'chma ma'noda bo'lsa, o'z ma'nosida ishlatib so'z birikmalari hosil qiling.

Yuz o'girsasendan odamlar agar

Sababini avval o'zingdan axtar.

Fe'l-u atvoringdan, zahar tilingdan

Be'mani, qo'lansa so'zingdan axtar. (Uyg'un)

Uyadosh so'zlar ustida ishlash. Uyadosh so'zlar deb bir uyaga, (mavzuga, turkumga, guruhga, to'daga) mansub so'zlar sirasi tushuniladi. Chunonchi,

otlarning shaxsni ifodalovchi soʻzlar, narsa-buyumni ifodalovchi soʻzlar, qurol nomlarini ifodalovchi soʻzlar, oʻsimliklarni, hayvonlarni, fazoviy va samoviy jism nomlarini ifodalovchi yuzlab uyalar mavjud. Bu uyalar oʻz navbatida yana kichik uyalarga (masalan, hayvonlar - uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar) boʻlinadi. Bular ham yanada kichikroq uyachalarga ajralishi mumkin.

Masalan, it - umumiy maʼnoli soʻz. Itning turlari esa shu umumiy maʼnoli soʻzning xususiy maʼnolaridir. (*It - tozi, boʻribosar, buldok, laycha va boshqalar*).

Oʻquvchilarning soʻz xazinasini uyadosh soʻzlar bilan boyitish maqsadida berilgan umumiy maʼnoli soʻzlarning xususiy maʼnolarini topish yoki aksincha, soʻzlarni uyalar boʻyicha guruhlash, berilgan matnlardan uyadosh soʻzlarni ajratish, uyadosh soʻzlarni qatnashtirib, maʼlum bir mavzuda matn yaratish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Maʼnodosh soʻzlar ustida ishlash orqali oʻquvchilar savodxonligini rivojlantirish mumkin. Ona tilida maʼnodosh soʻzlar ustida ishlash deyarli barcha mashgʻulotlarda istisnosiz amalga oshiriladi. Oʻquvchilar nutqini maʼnodosh soʻzlar bilan boyitish maqsadida berilgan soʻzlarni guruhlash, berilgan umumisteʼmoldagi soʻzga maʼnodosh topish, berilgan soʻzlarni shu maʼnoni ifodalovchi frazeologik birikmalar bilan almashtirish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanishni maslahat beramiz.

Quyida ana shunday topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

1-topshiriq. Matnni oʻqing. Ajratilgan soʻzlarga maʼnodoshlar toping.

*Manzilga kun chiqar-chiqmas yetib keldik. Koʻchalar sershovqin, barvaqt boʻlsa ham, avtobus va tramvaylarda odam **gavjum** edi.*

*Kun sovuq, ammo osmon **begʻubor** artilgan shishaday musaffo. Qirov tushgan daraxtlar xuddi qor tushganday oppoq, faqat nayzaday toʻgʻri shoxlar osmonga **qadalgan** yosh tolalargina yalangʻoch va koʻm- koʻk.*

2-topshiriq. Ajratilgan soʻzlarni qavsda berilgan soʻzlar bilan almashtirib, maʼno farqlarini tushuntiring. Soʻzning ijobiy va salbiy boʻyogʻiga eʼtibor bering.

Do'stning **yuzi** (jamol-chehrasi-ruxsori-diydori...) odamni xursand qilsa, dushmanning **yuzi** (afti-beti-basharasi...) odamni ranjitadi.

3-topshiriq. Berilgan murojaat so'zlarga ma'nodoshlar toping. Masalan: *mehribon o'qituvchim - mo'tabar ustozim - g'amxo'r murabbiyim - aziz tarbiyachim va hokazo*

1.3 Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash usullari

Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida „ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir“, deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili fani o'quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifmi o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tu-tiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qoilangan liar bir so'zning va ta'limiy jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlar va ularning ma'nolari quyidagicha tanishtiriladi:

O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish. O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayot-gan bo'lishi mumkin.

Bu soʻz yangi paydo boʻlgan soʻz boʻlmasa ham, oʻquvchi uning maʼnosini bilmaydi, demak, oʻquvchi uchun yangi soʻz hisoblanadi. Masalan, 1-sinf „Ona tili“ darsligida

1. xabib (*doʻst*), dar-parda (*oyna oʻrniga shaffof qogʻoz yopishtirilgan derazaparda*), magʻrur (*kekkaygan, magʻrur — kamtar*), kamol (*har tomonlama yetak, toʻkis, kamol topmoq — xazon boʻlmoq*), xaroba (*qarovsiz qolgan vayrona*), qar-dosh (*doʻst, birodar, qarindosh-urugʻ*), safdosh (*harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga*), sarkarda (*qoʻmondan, lashkarboshi*), zeb (*bezak, koʻrk, husn*), qasr (*hashamadi saroy, koʻshk*) kabi soʻzlarga duch kela-dilar. Bunday soʻzlarning maʼnosini sinonimlar keltirib kengaytirish yoʻli bilan, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar bilan izoh berish yoʻli bilan, gap tuzish orqali maʼnosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yoʻli bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash oʻquvchilarda soʻz maʼnolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. **Oʻquvchilarni soʻzning yangi maʼnolari bilan tanishtirish.** Oʻquvchilar koʻp maʼnoli soʻzlarning bir maʼnosini tushunsa, boshqa maʼnosini bilmasliklari mumkin. Bolalar soʻzlarning hamma maʼnolarini birdaniga oʻzlashtirib ololmaydilar. Ularning maʼnosini oʻzlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1—2-sinflarda oʻquvchilar koʻp maʼnoli soʻzning bir-ikki maʼnosi bilan tanishsa, 3—4-sinflarda yana boshqa maʼnolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlari: fonetika, leksika, soʻz tarkibi, morfologiya, sintaksis (boshlangʻich sinfda bu boʻlimlar „Tovushlarva harflar“, „Soʻz“, „Gap“, „Bogʻlanishli nutq“ deb nomlanadi)ni oʻrganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, maʼnodosh,

shakldosh, zid maʼnoli soʻzlarning maʼnolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. Masalan, „*niyati buzuvchi*“ iborasini tushuntirishda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalaniladi:

—Bu iborani „*soat buzuvchi*“ birikmasi bilan taqqoslang.

—Qaysi biri oʻz maʼnosida qoʻllanyapti? (*soat buzuvchi*)

—Qaysi birikma boshqa maʼnoda qoʻllanyapti? (*fikri buzuvchi*)

— „*Niyati buzuvchi*“ birikmasi qanday maʼnoni ifodalayapti? (Oʻquvchilar oʻylab, *niyati yomon kishilarni „niyati buzuvchi“* deyishadi, deb izoh beradilar)

Ko‘rinadiki, taqqoslash usuli so‘z ma’nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. „*Quloch otib*“, „*Janbeh yecli*“, „*ko‘zi o‘ynar*“, „*qalbi olov*“, „*til topishdi*“ kabi iboralarining ma’nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

1-sinf darsligida „*Xiva ona tarix tilmochi*“, „*urush yo‘lini taqqa bekitdik*“, „*biz ma’nosiga zeb bersak*“, „*rediskaga akaman*“, „*karvon bo‘lib kelamiz*“ („*Turnalar*“), „*chehrasiga tabassum yugurdi*“, „*bahor oq bulutni yetaklab ketdi*“, 2-sinf darsligida „*dov-daraxtning soch-soqolin qirishdi*“, „*Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi*“ kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o‘quvchini so‘z va iboralardan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishga undaydi, nuqtaning emotsionalligini oshiradi.

3. O‘quvchilar tilida kam qo‘llanadigan so‘zlar ma’nosi ustida ishlash.

Adabiy tilga oid ba’zi so‘zlar o‘quvchilar nutqida kam qo‘llanadi. Bu so‘zning ma’nosini o‘quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o‘rnida oddiy so‘zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so‘zlarni qo‘llaydi. O‘qituvchi ularni kitobiy so‘zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo‘llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, *jim* — *tinch* — *osuda* — *osoyishta*, *yurakdan* — *dildan*, *soat strelkasi* — *soat millari*, *garmdori* — *qalampir*, *daqiqqa* ~ *daqiqqa*, *rayon* — *tuman* kabi.

So‘zlarning qo‘llanishini faollashtirish uchun yozma ishlar o‘tkazilayotganda ham o‘quvchilar e’tiborni ayrim so‘zlarni boshqasi bilan almashtirishlariga qaratiladi. 1-sinfda rasmlar asosida og‘zaki hikoya tuzayotgan o‘quvchilarning nutq birliklari bir-biridan farqli bo‘lishi, biri ikkinchisining so‘zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, *Shirinsuxan* — *shirinso‘z*, *nasim* — *tonggiyel* (shamol), *tanbeh berdi* — *dashnom berdi*, *zilolsuv* — *tiniqsuv*, *kichik* — *mo‘jaz*, *tik* — *adl*, *nafis* — *nozik* kabi.

Yozma bayon yozishga tayyorlanish jarayonida ham (2-sinf) so‘zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so‘zlar tanlashga e’tibor berish lozim.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta’sir qiluvchi ko‘chma ma’nodagi badiiy ifodalar ko‘p qo‘llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishlash o‘quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqini adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo'lgan so'z ma'nolari ustida ishlash. Bunday so'zlar darslikda kam qo'llanadi. Bunday so'zlarning bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lganlarini ajratib olib „Bilib qo'ygan yaxshi" rubrikasi ostida ishlansa, o'quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

5. Grammatik atamalar ma'nosi bilan tanishtirish. Avvalo, grammatik atamalarning to'g'ri talaffuzi, imlosi o'rgatiladi. Shundan so'ng misollar asosida uning mazmuni ochiladi, so'ngra o'qitish va mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning atama ma'nosini to'laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug'at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakldosh so'zlar ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi. Masalan, *ziyrak* — *Zirak*: odamning xususiyati (sezgirliigi) — *ziyrak*; quloqqa taqiladigan taqinchoq — *zirak*. Bu so'zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So'zlarni kuzatish usuli orqali ularning imlosini, ma'nosini va talaffuzini o'rgatish. Bu usul o'zakdosh so'zlarni o'rganish jarayonida, *ko'm-ko'k*, *oppoq*, *qip-qizil* kabi sifatlarning ma'no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan, o'quvchilar *guldori*, *gulchi*, *guldor*, *gulli*, *gulsiz*, *gulla* so'zlarining tarkibini kuzatadilar, bu so'zlar ma'nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so'zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shu o'rinda o'qituvchi so'zlarni o'z so'ziga aylantirish orqali aniq fikr yuritishga o'rganish o'quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o'zgarayotgan so'zlarning imlosini o'rgatishda ham qo'llaniladi: *og'iz+im* — *og'zim*, *singil+im* — *singlim*, *u+ga* — *unga*.

3. So'zlarni belgilariga ko'ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo'lib, u ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so'zlarning anglatayotgan ma'nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog'liq. So'zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so'ng taqqoslanadi. Bu jara-yonda ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Masalan, qavm-

qarindoshlik bo'yicha guruhlash quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ota urug'i: *ota, amaki, amma, dada, buvi, buva.*
2. Ona urug'i: *ona, xola, tog'a, buvi, buva.*

Sifatlarda xususiyat bildiruvchi sifatlar (*sho'x, og'ir, bosiq, aqlli, aqlsiz, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va hokazo.*), ta'm bildiruvchi sifatlar (*shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r, mazali, bemaza, chuchmal va hokazo.*) va shu kabilar guruhlash musobaqasi tarzida uyushtirilishi mumkin.

Ma'lum bir guruhdagi so'zlar ro'yxatini tuzish ishini alifbo asosida yozdirish ham mumkin. Bu jarayonda guruhlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Bolalar o'yinlari nomining lug'atini tuzing.
2. O'zingiz bilgan shoir nomlari ro'yxatini tuzing.
3. Ertak nomlari ro'yxatini tuzing.
4. Joy nomlari ro'yxatini tuzing.
5. Ma'nodosh so'zlar ro'yxatini tuzing
6. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar ro'yxatini tuzing va boshq.

Bular o'rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog'liq holda tashkil etiladi. So'zlarning izohli lug'atini sinf yoki maktab miqyosida tuzib, osib qo'yilib, umumiste'molga kiritish mumkin. Bunda „*O'quvchilar pochtasi*“ tashkil etilishi ham mumkin. O'quvchilar qaysi so'zning ma'nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so'zni yozib yashikka tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so'zlar ma'nosi, imlosi, izohi ustida ishlanadi.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MA'NODOSH SO'ZLARNI O'RGATISH

Ma'lumki, ona tili ta'limi tub islohotlarni boshidan kechirdi. Ta'lim mazmuni va usuli tamomila o'zgardi. Zero, maktab ona tili ta'limining maqsadi o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ekan, maktabda ona tilini o'qitishda uzundan-uzoq qoidalarni yodlatishdan voz kechilib, asosiy diqqat-e'tibor o'quvchining og'zaki va yozma nutqini shakllantirish masalalariga qaratilishi davr taqozosidir. "Maktabda ona tili ta'limining bosh maqsadi, - deb qayd qilingan ona tili ta'limi konsepsiyasida, - o'quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan, nutq jarayonida samarali va o'rinli foydalanish ko'nikmalarini turlicha yo'sin va shakllarda ifodalash omili masalalarini hosil qilishdan iborat"⁵.

Demak, ona tili mashg'ulotlarida nutqning asosiy xomashyosi so'z ustida ishlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish umuman o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda ta'lim samaradorligini belgilovchi qulay metod, vosita va usullarni to'g'ri belgilay olish - ona tili ta'limi oldida turgan muhim, dolzarb vazifadir.

2.1. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganish

Tildagi so'zlarning ma'lum qismi shakl yoki ma'nosiga ko'ra o'zaro aloqador butunliklarni tashkil etadi. Bunday butunliklardagi so'zlar ana shu xususiyatlariga ko'ra ikki guruhni tashkil qiladi: 1) omonimlar, omoshakllar, omofonlar, omograflar va paronimlar shakliga ko'ra; 2) sinonimlar, antonimlar esa o'zaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga ko'ra alohida guruhga mansub bo'ladi.

1-§. Omonimlar yunoncha *homos-bir xil, onoma-nom* so'zlaridan olingan bo'lib, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo alohida ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardir. Bunday so'zlar **leksik omonimlar** deyiladi.

Masalan: *kuya* - hasharot, *kuya* - qozonning kuyasi.

Omonimlar bir va bir necha turkumga mansub bo'lishi mumkin.

⁵ O'zbek maktablarida ona tili konsepsiyasi. «Til va adabiyot ta'limi jurnali. 1994, 1-2 qo'shma son.

Masalan: *chang* - gard va cholg'u asbobi ma'nolari bilan ot turkumiga mansub; o 't-olov, ko'kat kabi ma'nolari bilan ot so'z turkumiga mansub, o 't - fe'lining buyruq-istak mayli ekanligi kabilar shular jumlasidandir.

Bir xil so'z turkumiga mansub omonimlar turli grammatik qo'shimchalar bilan shakllanganda ham ularda omonimlik saqlanib qoladi. Masalan: *ot* - ism va uy hayvoni ma'nolaridagi omonim so'zlarga egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini qo'shish bilan omonimlikning saqlanib qolganini ko'rish mumkin: *otlar*, *otning*, *otlarim*. Bunday omonimlarni mutlaq omonim so'zlar deb atash mumkin.

Omonimlarni vujudga keltiruvchi hodisalar turlicha bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

1. O'z qatlamga mansub bo'lgan ba'zi so'zlar tarixan fonetik tuzilishi har xil bo'lsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: *ot* (ism) - *ot* (hayvon) - *ot* (harakat); o 't (o't-o'lan) - o 't (olov) - o 't (harakat) kabi omonim so'zlardagi o va o ' unlilari tarixan o'zining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega bo'lgan. Biroq, hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi ma'no bog'lanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, *ko'k* so'zi, dastlab, *ko'k* rang (sifat) tushunchasiga ega bo'lgan. Keyinchalik bu so'z metafora (o'xshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan. Hozir ular o'rtasidagi bunday ma'no bog'lanish yo'qolib, omonim so'z hosil bo'lgan. Xuddi shunday holatni *dam* so'zining nafas, hordiq, harorat, bosqon ma'nolarida ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.

3. Umumturkiy yoki asl o'zbekcha so'zlar o'zga tillardan so'z o'zlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega bo'lib qolishi mumkin.

Masalan, *bog'* (mevazor) va *bog'* (bog'langan narsa, beda bog'i); *tok* (uzum novdasi) va *tok* (elektor toki), *tom* (uy tomi) va *tom* (kitob jildi) so'zlari o'zbekcha-tojikcha hamda o'zbekcha-rus va yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'xshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim so'zlardir.

4. Ma'lum bir so'zning o'zak-negizidan qo'shimchalar orqali yangi so'zlar yasalishi natijasida shakldosh so'zlar hosil bo'ladi. Masalan: *oylik olmoq*, *oylik reja* birikmalaridagi oylik so'ziga qo'shilgan -lik qo'shimchasi asosida shakldosh so'z hosil bo'lgan.

Ba'zan shakldoshlik nisbiy bo'lib, so'zlarning ma'nolari har xil bo'lgani holda aytilishi bir xil, ammo yozilishida bir oz farq bo'lishi yoki ba'zan ma'noli qismlarigina shakldosh bo'lsa ham, grammatik ma'nosi o'zgacha bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra shakldosh so'zlarning uch xil turi farqlanadi: 1) omoshakllar; 2) omofonlar; 3) omograflar.

2-§.Omoformalar ma'nolari har xil bo'lib, ba'zi grammatik shakllariga ko'ra bir xillikka ega bo'ladigan shakldosh so'zdir. Omoformalar ayni bir so'z turkumiga ham, boshqa-boshqa so'z turkumlariga ham mansub bo'lishi mumkin. Masalan, *oqar* (oq tusga kir) - buyruq fe'li, II shaxs birlik; *oqar* ("oqadigan") fe'lining kelasi zamon sifatdosh shakli; *yoz* - ot, bosh kelishik shaklida, *yoz* - II shaxs birlikdagi buyruq fe'li va boshqalar.

Bu so'zlarga boshqa grammatik qo'shimchalar qo'shilganda bir-birlaridan tamomila ajralib, omonimlik yo'qoladi. Masalan: *oqaray*, *oqarsin* - *oqaradi*, *oqarsan*; *yozning*, *yozni*, *yozga*, *yozda*, *yozdan* - *yozay*, *yozgin*, *yozsin* kabi holatlarda omonimlik mavjud emas.

2-§.Omofonlar fonetik tarkibi ma'lum tovush bilan farqlanadigan, lekin talaffuzda shakldosh bo'lib qoladigan so'zlardir. Omofonlardagi o'zaro farq ular tarkibidagi bitta fonemada bo'ladi va ular, asosan, jarangli va jarangsiz juftliklar va hosil bo'lish o'rniga ko'ra yaqin bo'lgan tovushlarning talaffuzda bir xillik kasb etishida ko'zga tashlanadi. Masalan, *sud* - *sut*, *tanbur* - *tambur*, *tub-tup* , *yetdi* - *yetti* kabi so'zlar talaffuzi omofonlarni yuzaga keltiradi.

2-§. Omograflar yozilishi bir xil bo'lgan shakldosh so'zlardir. Omograflar ma'nosi va fonetik tarkibi, talaffuzi jihatidan boshqa - boshqa, faqat yozilish shakli jihatdan bir xil bo'lgan so'zlardir. Masalan, *tol* - daraxt, qurilish jihozi; *tok* - elektr quvvati, uzum novdasi; to'r-xonaning yuqori qismi, parda kabi ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardagi *o*, *o'* tovushlari talaffuzda qattiq va yumshoqligi bilan

farqlanadi, biroq yozilishiga ko'ra shakldoshlikka ega bo'ladi. Xullas, talaffuzi va yozilishi bir xil bo'lgan bunday shakldosh so'zlarni o'zak va grammatik qo'shimchalarining bir xilligi, bir turkumga mansubligi e'tibori bilan omograflar qatoriga qo'shish mumkin. Tildagi bu kabi shakldoshliklar so'z o'yini sifatida tuyuq, askiya san'atlarida asosiy o'rin tutadi.

Paronimlar. Paronim so'zlar yunoncha *para-juft* va *onoma-nom* so'zlaridan olingan bo'lib, fonetik tarkibi va ma'nosi boshqa-boshqa biroq talaffuz jarayonida o'xshash, yaqin bo'lgan so'zlardir. Demak, paronimlar birdan ortiq so'zning shakliy o'xshashligiga asoslanadi va bu hodisa ko'pincha so'zlarni adabiy normada to'g'ri talaffuz etmaslik, adabiy normaning buzilishiga ham olib keladi.

Masalan, *fakt* - *pakt*, *afzal* - *abzal* so'zlari f undoshining p, b tarzda talaffuzi asosida yuzaga kelgan paronimlar bo'lib, ular aslida fonetik tarkibi va ma'no jihatdan farqlanuvchi so'zlardir: *fakt* - dalil, isbot; *pakt* - davlatlar o'rtasidagi shartnoma, kelishuv hujjati ma'nosidagi so'z; *afzal* - qulay, ma'qul; *abzal* esa ot va boshqa ulov anjomi, to'qim va boshqa jihozlarning umumiy nomidir. Xuddi shuningdek, paronimlik holatni *amr-amir*, *zirak* - *ziyrak*, *jayron-jiyron*, *yondosh* - *yondash*, *quyilmoq* - *quyulmoq* so'zlari misolida ko'rish mumkin.

Paronimlar tub yoki yasama so'zlardan tarkib topgan bo'lishi mumkin. Masalan, *fakt-pakt*, *burj-burch* kabilar tub so'zlar asosida shakllangan paronimlardir. Yasama so'zdan esa bir o'zaklardan bir xil qo'shimchaning fonetik variantlarini qo'shish asosida hosil bo'ladi: *yoriq-yorug'*, *qurit-qurut*, *oqlik-oqliq*, *otalik-otaliq*. Paronim so'zlar o'z va o'zlashma so'zlar asosida vujudga kelishi mumkin: *aro-oro* (o'zbek va fors-tojik), *burch-burj* (o'zb. va arab). Paronimlar ham antonimlar singari har doim juft so'z shaklida tuziladi, biroq ular bir xil va har xil so'z turkumlariga mansub bo'lishi mumkin.

Paronimiya ba'zi til hodisalariga yaqin bo'lib, ulardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Paronimlar so'z variantlari (leksik dubletlar) bilan yondosh hodisadir. Ular ham ayrim tovush orqaligina farqlanib, talaffuz o'xshashligiga ega bo'ladi. Shu bois ba'zan paronimlar mazkur hodisa bilan chalkashtirilishi mumkin.

Masalan, adabiy tildagi *tomosha* soʻzining baʼzan *tomosho*, *tamosho* tarzda ikki xil variantda fonetik jihatdan buzib ishlatilishi orqali uning talaffuz dubleti hosil boʻladi. Shuningdek, ayrim soʻzlarning turlicha variantlarda ishlatilishi adabiy meʼyor sifatida qabul qilingan: *gado-gadoy*, *demak-demoq*, *obroʻ-obroʻy*, *nogoh-nogah*, *yiqila bermoq-yiqilavermoq* kabi juftliklar, shular jumlasidandir.

Xullas, tilshunoslikda variantlilik, soʻz variantlari va leksik dubletlar kabi turlicha terminlar asosida nomlangan bu hodisa, paronimlardan farqli ravishda, bitta soʻzning ogʻzaki va yozma nutqda turlicha shakllarda qoʻllanishidir.

2. Paronimlar bilan yondosh hodisalardan yana biri omofonlardir. Bu ikki hodisaning asosiy oʻxshash va farqli tomonlari quyidagilarda koʻzga tashlanadi:

a) monosillabik (bir boʻgʻinli) oʻzlashma soʻzlardan tarkib topgan baʼzi paronimlardagi undoshlarning talaffuz oʻrni va usuliga koʻra bir xilligi ularni omofonlarga yaqinlashtiradi. Masalan: *burch-burj*, *dars-darz*, *qars-qarz*. Biroq aksariyat paronimlarda bunday undoshlar jarangli-jarangsiz juftlik boʻlmay, hosil boʻlishi oʻrniga koʻra oʻxshashlikka asoslanadi. Masalan *fakt-pakt*, *abzal-afzal*. Omofonlarda esa artikulyatsiya oʻrni va usuliga koʻra bir xil boʻlgan undoshlar har doim soʻz oxirida uchraydi va talaffuzda aynan ana shu juftliklar omofonlikni yuzaga keltiradi. Masalan: *top-tob tub-tup*, *mard-mart*, *yod-yot* kabilar shular jumlasidandir;

b) koʻp boʻgʻinli soʻzlardan tarkib topgan paronimlarda esa paronim juftliklar oʻzaro nooʻxshash fonema vositasida ajralib turadi va shu jihatiga koʻra omofonlardan farqlanadi: *ahil-ahl*, *otalik- otaliq*, *yoriq-yorugʻ*, *qurut-qurit* kabilar shular jumlasidandir.

Sinonimlar (yunoncha *synonimon*-bir xil nomli soʻzidan olingan) fonetik tarkibi har xil, maʼnolari bir xil yoki bir-biriga yaqin boʻlgan soʻzlardir. Maʼnodoshlikning soʻzlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lugʻaviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, *nomus* - *vijdon*, *dangasa* - *yalqov* - *ishyoqmas* - *tanbal* soʻzlari leksik sinonimlardir. Bunday soʻzlar, odatda, bir xil soʻz turkumiga mansub boʻladi. Ularning bir umumiy maʼno doirasida bogʻlanishi esa, **sinonimik qator** deb yuritiladi. Masalan, *vaqt -payt -zamon* - *fursat* - *mahal* - *chogʻ* - *kez* - *mavrid* -

palla - muddat - dam soʻzlari oʻzaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan soʻz **dominanta** (bosh soʻz) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumisteʼmol soʻzlaridan boʻlib, sinonim soʻzlar lugʻatida birinchi oʻrinda beriladi. Masalan, *yuz - bet - aft - bashara - turq - chehra - oraz - ruxsor* sinonimik qatoridagi *yuz* soʻzi betaraf - dominanta boʻlib, *aft, bashara turq* salbiy, *oraz, chehra, ruxsor* esa ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sinonimlarni yuzaga kelishida polisemantik soʻzlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik soʻz oʻzining har bir maʼnosi bilan boshqa - boshqa sinonim qatorda ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: *balo - falokat - ofat; balo - uddaburon - bilogʻon- ishbilarmon* kabi maʼnodoshlik qatorida *balo* soʻzi oʻz va koʻchma maʼnosi bilan ishtirok etgan.

Sinonim qatordagi soʻzlar quyidagi xususiyatlariga koʻra oʻzaro farqlanadi:

1. Sinonim qatordagi soʻzlar nutqning biror uslubiga xoslanganligi bilan ham oʻzaro farqlanadi. Masalan, *doim, hamisha, nuqul, birday* soʻzlari koʻpincha soʻzlashuv uslubida, mazkur sinonim qatorga mansub boʻlgan *yakkash, mudom* soʻzlari esa kitobiy uslubda koʻproq ishlatilishi bilan boshqa maʼnodoshlardan farqlanadi.

Sinonimik qatordagi baʼzi soʻzlar hozirgi tilga nisbatan eskirgan boʻlishi ham mumkin. Shuningdek, ulardan baʼzilari shevalarga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: *mard, jasur, botir, yovqur, jaysan*. Bu sinonimlardan *yovqur* soʻzi eskirganligi, *jaysan* esa tarixiy - dialektalligi bilan farqlanadi.

Sinonimik qatordagi soʻzlar oʻzaro adabiy tilga yoki shevaga xosligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, *qidirmoq, axtarmoq, izlamoq, istamoq* sinonimik qatoridagi *istamoq* soʻzi shevaga xosdir.

Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash vositalari boʻlib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Sinonimlar yuzaga kelishi va maʼnolariga koʻra quyidagi turlarni tashkil qiladi:

1. **Toʻliq (sof) sinonimlar.** Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri oʻrnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular

ko‘pincha boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlar bilan ma‘nodoshligi asosida hosil bo‘ladi: *kuch* (o‘zb.) - *qudrat* (ar.), *ot* (o‘zb.) - *ism* (ar.), *ko‘klam* (o‘zb.)-bahor (toj.), *tuman* (o‘zb.)-rayon (rus). Shuningdek, *fazo-kosmos*, *muharrir-redaktor* kabi faqat o‘zlashma so‘zlardan tuzilgan sinonimlar ham to‘liq sinonimlardir.

2. Ma‘naviy sinonimlar. Bir-biridan nozik ma‘nolari ya‘ni ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi ma‘nodosh so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, *kuldi*, *jilmaydi*, *tirjaydi*, *iljaydi*, *ishshaydi* kabi ma‘nodosh so‘zlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra *chiroyli*, *go‘zal*, *xushro‘y*, *ko‘hli*, *ko‘rkam*, *barno*, *suluv*, *zebo*, *latif* kabi sinonimlar esa ijobiy bo‘yog‘ining darajasiga ko‘ra farqlanadi.

3. Shartli sinonimlar. Muayyan matndagina ma‘nodoshlikka ega bo‘ladigan sinonim so‘zlardir. Ular ko‘pincha she‘riyatda kuchli his-tuyg‘u ifodalovchi vositalar sifatida qo‘llaniladi: *Nega kerak shu chiroy*, *shu o‘t*, *Shu yoniq yulduzni ko‘zga yashirmoq* (H.O.) Parchadagi *chiroy*, *o‘t*, *yoniq yulduz* o‘zaro ma‘nodosh so‘zlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda *qad-sarv*, *lab-la‘l*, *yuz-oy*, *hilol* kabi tashbehlar asosida ham keng qo‘llaniladi.

Sinonimlar tuzilishiga ko‘ra a) sodda: *tez-chaqqon-ildam*; b) juft: *sog‘-salomat*, *el-yurt*; v) birikmali: *yuzi qora-beti qora-ori* yo ‘q shaklida uchraydi.

Ayni paytda so‘zlar fraziologik birikmalar bilan ham ma‘nodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan: *sevindi*, *boshi ko‘kka yetdi*; *xotirjam*, *ko‘ngli to‘q*. Bunday ma‘nodoshlik **leksik-fraziologik sinonim** deyiladi.

Sinonimlarni deyarli barcha so‘z turkumlarida uchratish mumkin. Masalan: 1) ot sinonimlar: *baxt*, *saodat*, *tole*, *iqbol*; 2) sifat sinonimlar: *go‘zal*, *chiroyli*, *ko‘rkam*, *ko‘hlik*, *suluv*; 3) olmosh sinonimlar: *barcha*, *bari*, *hamma*, *butun*; 4) fe‘l sinonimlar: *o‘smoq*, *ulg‘aymoq*, *voyaga yetmoq*; 5) ravish sinonimlar: *tez,chaqqon*, *ildam*; 6) aralash sinonimlar: *bash*, *a‘lo*, *muvaqqiyatli* (son va sifat turkumlari asosida); 7) ko‘makchi sinonimlar: *kabi,singari*; 8) bog‘lovchi sinonimlar: *ammo*, *lekin*, *biroq*; 9) modal so‘zli sinonimlar: *shubhasiz*, *shaksiz*, *so‘zsiz*.

Xullas, sinonimlar tilning lug'aviy boyligini, ko'rkamligini belgilovchi vositalardan biri bo'lib, ular nutq jarayonida o'rinsiz takrordan, uslubiy g'alizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Antonimlar (yunoncha anti-zid, onoma-nom so'zidan olingan bo'lib) o'zaro zid tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir. So'zlarning zid ma'noligi boshqa shu kabi hodisadan farqli ravishda leksik (lug'aviy) antonimlar deyiladi. Masalan: *oq* - *qora*, *kun* - *tun*. Antonimlar ham odatda bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi va zid ma'nolilik, odatda, faqat ikkita so'z doirasida sodir bo'ladi: *uzun* - *qisqa* (sifat), *kelmoq* - *ketmoq* (fe'l) kabi. Antonimlar bir xil va har xil o'zakli so'zlardan ham tarkib topishi mumkin. O'zakdosh so'zlarning antonimligi, asosan, zid ma'noli so'z yasovchi qo'shimchalar vositasida yuzaga keladi: **suvli** - **suvsiz**, **xabardor** - **bexabar** kabi. Har xil o'zakli so'zlardan tarkib topgan antonimlar esa tub shaklda bo'ladi: *katta* - *kichik*, *rost* - *yolg'on*.

Ko'p ma'noli so'zlar o'z va ko'chma ma'nolari bilan bir necha antonim juftliklar tarkibida ishtirok etishi mumkin: *og'ir yuk* - *yengil yuk*, *og'ir masala* - *oson masala* kabi.

Bir so'z o'zaro sinonim so'zlar bilan yoki o'zaro sinonim so'zlar boshqa sinonimlar bilan ham antonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan, *xafa* so'zi *xursand*, *shod*, *xushnud* kabi so'zlar bilan o'zaro antonim munosabatga kirisha oladi.

Antonimlar nutqda belgi-xususiyat, miqdor, o'rin, payt ifodolovchi so'zlarda ko'p bo'lib, aniq tushuncha ifodalaydigan lug'aviy birliklarda kam uchraydi. Bu hol antonimlarning asosan belgi, xususiyat negizida (sifat va ravishlarda) paydo bo'lishidan darak beradi. Antonimlarga so'z turkumlari nuqtai nazaridan qaralganda ularning quyidagi turkumlarda uchrashini kuzatish mumkin: 1) ot antonimlar: ota-ona, yigit-qiz, kelin-kuyov; 2) sifat antonimlar: shirin-achchiq, katta-kichik, baland-past; 3) fe'l antonimlar: kulmoq-yig'lamoq, turmoq-o'tirmoq; 4) ravish antonimlar: uzoq-yaqin, oz-ko'p, sekin-tez; 5) ba'zan nutqda baho me'zoni bo'lgan besh va ikki sonlari ham zidlikka ega bo'ladi.

Antonimlar nutqda juft holda qo'llanilib, ma'no ko'chgan holda yangi tushuncha ifodalash vositasi bo'ladi. Masalan: *bordi - keldi, keldi - ketdi, yaxshi - yomon, oq - qora* kabi antonimik juftliklar aslida fe'l va sifatlar bo'lib, nutq jarayonida otga ko'chishi mumkin: *bordi-keldi uzildi, keldi-ketdi ko'p bo'ldi, oq-qorani tanigan kabi*.

Antonimlar asosida anglashilgan ma'no zidligi kuchli va kuchsizligi bilan ham farqlanadi. Masalan, *oq-qora, issiq-sovuq* kabi belgi anglatuvchi so'zlarga nisbatan *ota-ona, chol-kampir* singari nom bildiruvchi so'zlarda ma'no zidligi kuchsizroqdir. Shunga ko'ra ularni *sof* va *yarim antonimlar* sifatida ajratish mumkin. Bulardan tashqari, muayyan matndagina o'zaro zidlik kasb etuvchi o't (olov)-suv, it-mushuk, mushuk-sichqon kabi *matniy antonimlar* ham mavjud.

Zidlik munosabati faqat so'zlar doirasida mavjud bo'lmay, so'z bilan iboralar o'rtasida ham uchraydi: *qo'rqqoq-yuragida yoli bor, botir-chumchuq pirs etsa, yuragi shirr etadigan* kabilar shular jumlasidandir. Budnay antonimlar *leksik-fraziologik antonimlar* deyiladi.

Antonimlar tildagi kuchli uslubiy vositalardan biri bo'lib, badiiy ijodda tazod san'atini vujudga keltiradi.

2.2. Ma'nodosh so'zlar yuzasidan noan'anaviy darslar joriy etish

Biz bolani ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga o'rgatmas ekanmiz, mustaqil O'zbekistonning «o'ziga xos, o'ziga mos» yo'ldan borishiga sabab bo'ladigan, milliy urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanayotgan yoshlarimizga to'g'ri ta'lim-tarbiya bera olmaymiz. Bu narsalarni eng avvalo, har bir pedagogning ish rejasida, dasturlarida o'z aksini topishi lozim.

Ona tili darslari oldiga qo'yiladigan vazifalar va ularni amalga oshirish yo'llari, har qanday mukammal dastur asosida yaratilgan takomillashgan darslik, samarador usullar bilan o'quvchilar ongiga singdirilgandagina kutilgan natija berishi mumkin. Hozirgi zamon talabi darajasida dars o'tish uchun o'qituvchilarga quyidagi omillar asos bo'lmog'i lozim.

1. Didaktika va tarbiya nazariyasi bilan puxta qurollanish;
2. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

3. O'z fani bo'yicha yangiliklardan boxabar bo'lish;
4. Dars o'tishning noan'anaviy usullarini amaliyotda qo'llash;
5. O'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakalariga mos tarzda ta'lim mazmunini yangilash;
6. O'qitishda kompyuterlarni joriy etish;
7. Nutqiy jihatdan barkamol bo'lish, ishontirish, isbotlash, malakalarini egallash.

Ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning usullari xilma-xildir. Biz ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari va shaxsiy tajribalarimizga asoslanib, ona tilidan muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullarini tavsiya qilamiz:

1. Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish.
2. Til materiallarini sintez qilish asosida ham muammoli vaziyat yaratish mumkin.
3. Til faktlarini qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash orqali muammoli vaziyat yaratish.
4. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, muammoli vaziyat yaratish.
5. Til materiallariga ayrim o'zgartirishlar kiritishni talab qilish orqali muammoli vaziyat yaratish.
6. Tillarni taqqoslash yo'li bilan ham muammoli vaziyat yaratsa bo'ladi.

Muammoli vaziyat yaratishda til materialining murakkablik darajasini hisobga olish nihoyatda zarur. Chunki o'qituvchi til materialining murakkablik darajasidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratishning usulini tanlaydi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiruvchi vositadir. Bu ta'lim talabalarning bilimlarini mustaqil egallashga undovchi o'qitishning muammoli uslubidir. Ta'limning ushbu turiga muvofiq talabalar bilan munozaralar, didaktik o'yinlar maxsus ijodiy topshiriqlar o'tqaziladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga muvofiq talaba ona tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlashi, ijodiy faoliyat ko'rsatishi zarur.

Birinchi Prezidentimiz «O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim» deb aytgan gaplari ta’lim-tarbiya jarayoni uchun juda muhimdir. Ular ana shu yuksak va ulug’vor vazifani muvaffaqiyatli hal etishda xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish O‘zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to‘liq ro‘yobga chiqarish lozimligini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Tildagi so‘zlarning jami uning leksikasini, ya’ni lug’at boyligini tashkil etadi. Leksikologiya (yunoncha *lexikos* - lug’atga oid va *logos* - ta’limot) tilshunoslikning lug’aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo‘limidir.

Tilning lug’at tarkibi va uni tashkil etuvchi so‘zlar bir qator umumiyliklarga ega. Ular quyidagilarda ko‘zga tashlanadi: 1) tildagi so‘zlar muayyan ma’no ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. So‘zning ma’no xususiyatlari leksikologiyaning semsiologiya bo‘limida o‘rganiladi; 2) har qaday tilning taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan o‘zgarishlar avvalo uning leksikasida o‘z aksini topadi. Chunki til jamiyat taraqqiyoti davomida yangi-yangi so‘zlar hisobiga boyib boradi, ayni paytda ba’zi so‘zlar eskiradi va iste’moldan chiqadi; 3) tilning lug’at tarkibidagi so‘zlar iste’mol darajasiga ko‘ra chegaralangan yoki chegaralanmaganligi bilan ham farqlanadi. Xususan, ba’zi so‘zlar umumxalq iste’molida bo‘lsa (*ota, ona, yurmoq, men, sen*), ayrim so‘zlarning iste’mol darajasi chegaralangan bo‘ladi. Masalan, shevaga oid so‘zlarning hududiy chegaralanishi, shular jumlasidandir; 4) so‘zlar nutq uslubiga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ham farqlanadi. Jumladan, ba’zi so‘zlar uslubiy betaraf bo‘lsa, ba’zilari esa nutq uslubining ma’lum turiga mansubligi bilan farqlanadi; 5) har bir so‘z tovush qiyofasi va ma’noga, ya’ni shakl va mazmunga ega. Shunga ko‘ra, so‘zlar omonim, paronim, sinonim, antonim munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tilning eng muhim birliklaridan bo‘lgan so‘zlarga xos bu umumiyliklar leksikologiyaning asosiy tekshirish obyekti.

So‘z tilning muhim unsurlaridan biri bo‘lib, ma’lum ma’no doirasida birlashgan tovush va tovushlar majmuidan tashkil topadi. Biroq har qanday tovushlar birligi so‘z yoki uning ma’nosini shakllantira olmaydi. Masalan, *olma*

soʻzidagi tovushlar birligi meva tushunchasini ifodalagan holda, shu soʻzdagi tovushlarning *mloa*, *oalm* shaklidagi yigʻindisi hech qanday maʼnoga ega emas. Ayni paytda, tovushlarning bunday birligini soʻz deyish ham mumkin emas. Shunday ekan, har qanday tovush va tovushlar yigʻindisi maʼno ifodalovchi vosita sifatida emas, maʼno tovush va tovushlar majmuyini shakllantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga egadir. Muayyan maʼnoning tovush yoki tovushlar birligi vositasida belgilanishi esa soʻzni shakllantiradi. Soʻzning tovush tarkibida oʻzgarish yuz bersa ham baʼzan maʼno saqlanishi mumkin. Lekin bu hodisa birdaniga emas, tilning uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida roʻy beradi. Masalan *oʻgrat-oʻrgat*, *yogʻmir-yomgʻir*, *qoʻnshi-qoʻshni* kabi soʻzlar tarkibidagi metateza hodisasi ana shunday uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Biroq bunday tarixiy oʻzgarish soʻz maʼnosining yoʻqolishiga olib kelmaydi. Baʼzan bunday tarixiy oʻzgarishlar tilda yangi maʼno tashuvchi belgining, yaʼni yangi soʻzning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, *arch*, *yoy*, *koʻr* soʻzlari tarkibida yuz bergan tarixiy fonetik oʻzgarishlar tufayli, mazkur soʻzlarda oʻziga xos maʼno parchalanishi yuz bergan va ularning har biri hozirgi tilda alohida tushuncha ifodalovchi soʻzlar sifatida shakllangan: *arch-art*, *yoy-yoz*, *koʻr-koʻz*. Bundan tashqari tilda shunday soʻzlar ham borki, ular fonetik tarkibiga koʻra bir xil (omonim), biroq maʼno jihatdan har xil. Bunday soʻzlarda yashiringan maʼno faqat nutq jarayonida, yaʼni boshqa soʻzlar qurshovidagina anglashiladi.

Soʻzning ikkinchi muhim belgisi uning maʼno ifoda etish va saqlash xususiyati orqali namoyon boʻladi. Lekin ular ifodalaydigan maʼnolar bir xil emas. Chunki soʻz ifodalaydigan maʼno eng umumiy xususiyati bilan ham turli tiplarga boʻlinadi. Jumladan, ayrim soʻzlar obyektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, qiymat, harakat kabilarni, baʼzilari esa soʻzlovchining his-hayajonini, voqelikka munosabatini bildiradi, baʼzan esa faqat grammatik maʼno ifodalaydi. Biroq ular qanday maʼno ifodalashidan qatʼiy nazar, soʻz hisoblanadi.

Soʻzning obyektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi maʼlumoti leksik maʼno deyiladi. Masalan, *anor*, *tosh* soʻzlarining narsa haqida maʼlumot berishi, *qattiq*, *shirin* soʻzlarining belgi haqida maʼlumot berishi shular

jumlasidandir. Demak, soʻz borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarning atamasi - nomi boʻlishi yoki aksincha bunday xususiyatga ega boʻlmasligi mumkin. Shunga koʻra ular mustaqil va yordamchi soʻzlar turkumlariga ajratiladi. Tildagi mustaqil soʻzlarga leksik(lugʻaviy) maʼnoga ega boʻladi va ular leksikologiyaning asosiy oʻrganish manbai hisoblanadi. Soʻzning borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atash, nomlash xususiyati esa uning nominativ funksiyasi deyiladi.

Tildagi soʻzlar bir va birdan ortiq maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Bir maʼnolilik hodisasi monosemiya, koʻp maʼnolilik hodisasi esa polisemiya deb yuritiladi. Masalan, *marmar*, *gʻoya*, *xulosa*, *taassurot* kabi soʻzlar va ilm - fan sohalariga doir atamalar bir maʼnoli soʻzlardir. Oʻz va koʻchma maʼnolari tufayli ikki yoki undan ortiq maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar esa koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzlar deyiladi. Masalan: *etak* - *choponning etagi*, *togʻning etagi*.

Tilshunoslikda soʻzning koʻp maʼnolilik xususiyatini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki koʻp maʼnoli soʻzlar turli usullar vositasida maʼno koʻchishi orqali oʻz maʼnosidan boshqa maʼnolar ifodalagan holda tilning ifoda imkoniyatlarini boyishida muhim ahamiyatga ega. Demak, koʻp maʼnoli soʻzlar oʻz maʼnosidan tashqari koʻchma maʼnolarga ham ega boʻladi. Soʻzning nutqdan tashqarida, yaʼni tilda ifodalagan maʼnosi oʻz maʼnosi deb ataladi. Masalan, *koʻz*, *etak* soʻzlari yakka holda ishlatilganda uning asl, yaʼni oʻz maʼnosi anglashiladi.

Soʻzning gap ichida, yaʼni nutqdagi oʻz maʼnosidan boshqacharoq mazmun ifodalashi uning koʻchma maʼnosi deb yuritiladi. Masalan, *ishning koʻzi*, *togʻning etagi* kabi birikmalar tarkibida koʻz va etak soʻzlari koʻchma maʼnoda qoʻllangan.

Soʻzning maʼno koʻchish usullari ham soʻzlarning maʼnolarini oʻrgatishda muhimdir. Oʻzbek tilida polisemantik soʻzlar maʼno koʻchishning toʻrt xil usuli mavjud: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) vazifadoshlik.

Metafora (yunoncha «koʻchirma» soʻzidan olingan) biror narsa, belgi yoki harakatning nomi oʻzaro oʻxshashligi boʻlgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga koʻchishidir. Masalan: *U tarozining ikki pallasini koʻzdan kechirdi* (I.Rahim). *Yormat tarvuzni kesdi. Bir pallasini oʻzi olib, ikkinchi pallasini Yoʻlchi va Oʻroz oldiga qoʻydi* (Oybek).

Birinchi misoldagi *palla* soʻzining oʻz maʼnosi taroziga nisbatan qoʻllaniladi. Uning tashqi koʻrinishiga koʻra oʻxshashligi ikkinchi misolda tarvuz boʻlaklariga nisbatan ham qoʻllanishga sabab boʻlgan.

Metafora asosida nom koʻchish aniq narsalar doirasida boʻlganda ular oʻrtasidagi oʻxshashlikni ilgʻash uncha qiyin boʻlmaydi. Mavhum narsalar doirasida esa bu bir oz qiyin kechadi: Bir qarichlikdan dutorni sevaman. Bir **qoʻshni** kelinchakdan oʻrgangan edim (*Oybek*). Yigit yalt etib **qoʻshni** dalaga qaradi, u yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvillashib paxta terishayotgan edi (*M.Ismoil*).

Metafora asosida nom koʻchish birgina narsa nomi boʻlgan otlarga daxldor boʻlmay, boshqa turkumga mansub soʻzlarda ham uchraydi. Masalan: *taqir choʻl-taqir bosh, taqir sholcha; oʻtkir pichoq-oʻtkir hid, oʻtkir odam* kabi sifatlar; *dalalarda qushlar uchadi - uning jahldan lablari pir-pir uchardi* kabi feʼllarda ham metafora asosida maʼno koʻchishi uchraydi.

Metonimiya (yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish») narsa yoki hodisalarning makon va zamonda oʻzaro bogʻliqligi, doimiy aloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga koʻchishidir. Bunda narsa, harakat va belgi oʻrtasidagi oʻzaro oʻxshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi. Metonimiya asosida nom koʻchishda narsalar (otlar) oʻrtasidagi quyidagicha uzviy aloqadorliklar asos boʻlishi mumkin: 1) narsa yasalgan materialning umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga koʻchadi: *Moyi tugab **piligi** soʻxta boʻlgan chiroq bir lip etib soʻndi* (*S.Ahmad*). *Sochini mayda oʻrib uchiga **pilik** taqqan edi* (*S.Ahmad*); 2) narsalarning oʻziga xos harakat-holati, xususiyati jihatdan umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga koʻchadi: **beshik**-maktab taʼlim va tarbiya beshigidir, *qaldirgʻoch - litseyimiz qaldirgʻochlari*; 3) oʻrinning unda joylashgan narsa bilan doimiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga koʻchadi: **kosa**, **qoshiq**, **tovoq**-ovqat, **zal**-zal kulib yubordi, **sinf**-sinf oyoqqa qalqdi maʼnolarida ishlatiladi; 4) harakat- hodisaning nomi shu harakat-hodisaning bajarilgan vaqtiga koʻchiriladi: *Machitdan shom **azoni** eshitildi...*(*Sh.Toshmatov*). **Azonga** yaqin bir

iloj qilib qochibdi (P.Tursun); 5) narsaning nomi shu narsaga xos bo'lgan belgi aloqadorligi asosida ko'chadi: **tulki**-ayyor, *mug'ombir odam*, **iflos**-betayin, *jirkanch kishi*; 6) harakat, o'yin obyekti shu o'yinning nomi sifatida ko'chadi: **uloq**-uloq chopmoq va boshqalar.

Sifat va fe'l turkumiga mansub so'zlar doirasida ham metonimiya hodisasi mavjud bo'lib, ularda ko'chma ma'no belgining yoki harakatning aloqadorligiga asoslanadi. Masalan: **qisqa yo'l** - *qisqa nutq, qisqa ovoz*, **beg'ubor osmon**-*beg'ubor odam, beg'ubor ko'ngil*; **bola boqmoq**-*kishini hunar boqadi, bog'ni boqsang bog' bo'lur*.

Sinekdoxa narsa va hodisaning nomi bilan uning qismini atash yoki qismining nomi bilan shu qism mansub bo'lgan butunni atash orqali yangi ma'no hosil qilish usulidir. Masalan: *Tirnoq* so'zining *farzand* ma'nosida ishlatilishi (*U tirnoqqa zor edi*) qism nomi bilan butunni ifodalashnashidir. *Qo'l* so'zi bilan uning bir qismini, ya'ni barmoqning atalishi esa (*Qo'lga uzuk taqdi*) butun nomi bilan qismning nomlanishidir. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning quyidagi gaplardagi ma'nolariga e'tibor bering: *Rux samovar. Egamberdi, Sen darrov o't sol!* (A.Qodiriy) *Mirzo kechqurun samovarga chiqdi, ikkita choy ichdi* (A.Qahhor). *Devorlarda Tamara o'z qo'li bilan tikkan kashtalar osilgan edi* (M.Muhammedov). *U yenglariga chiroyli qizil kashtalar tikilgan ukraincha oq shoyi kofta kiygan edi* (P. Tursun).

Vazifadoshlik narsa va hodisalarning bajaradigan vazifasidagi birlik, o'xshashlik asosida nom ko'chishidir. Masalan, *chiroq* so'zi o'tmishda moy shimdirilgan pilik yordamida yorug'lik beruvchi moslamani anglatgan. Hozirda esa elektor yoritgichlar ham chiroq deb yuritiladi. Yoki tarixan qamish yoki patdan yasalgan yozuv quroli qalam deb atalgan. Hozir esa grafitli maxsus yasalgan yozuv quroli ham shu nom bilan yuritiladi. Vazifadoshlik asosida nom ko'chish so'zning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgani uchun ma'no ko'chishning boshqa usullariga nisbatan ancha kam uchraydi.

Ko'p ma'noli so'zlarning yuzaga kelishida polisemantik so'z va yasovchi affikslarning ham alohida o'rni bor. Masalan, *tuzsiz taom, tuzsiz gap* birikmalari

tarkibidagi -siz ko‘p ma’noli affiksi va o‘zak birligi ko‘p ma’noli so‘zning yuzaga kelishida muhim rol o‘ynagan. Polisemantik so‘zlar, qancha ma’noga ega bo‘lmasin, bu ma’nolar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Agar ular o‘rtasidagi ma’no bog‘liqlik davrlar o‘tishi bilan uzilib qolsa, u holda bunday so‘zlar o‘zaro omonimga aylanadi. Masalan, gap-fikr, mulohaza; gap-tengdoshlar, hamkasblar yig‘ini, ziyofati; ko‘k-rang, ko‘k-osmon kabilar. Keltirilgan misollarda ma’no bog‘liqlikni ilg‘ab olish ancha qiyin. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, polisemantik so‘zlar bir xil fonetik qobiqqa ega bo‘lgan so‘zlar takrori nuqtai nazaridan omonimlarga o‘xshasa ham, ko‘p ma’nolilik, avvalo bir turkum doirasida yuzaga kelishi, ular qancha ma’noga ega bo‘lmasin, o‘zaro bog‘liq bo‘lishi bilan omonimlardan farqlanadi. Ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, odatda, izohli lug‘atlarda, shakldosh so‘zlar esa omonim so‘zlarning izohli lug‘atida beriladi.

2.3. Ma‘nodosh so‘zlarni o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov natijalari

Mustaqil O‘zbekistonimizda qator sohalar rivojlanib, tafaqqiy etib bormoqda. Shu jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida o'tkazilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya va o'qitish usullarini bugungi talablar asosida takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Har qanday jamiyat o‘z kelajagi bo‘lgan farzandlarini jamiyat taraqqiyotiga, uning gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shadigan munosib fuqarolar bo‘lib kamol topishlarida ota-onalar bilan birgalikda ularga ta’lim-tarbiya berayotgan fidoyi o‘qituvchilarning ham hissasi bor deb bilaman.

Hozirgi davr o‘qituvchisi o‘ta bilimli, izlanuvchan va o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqтира oladigan darajada, yuqoridagi islohotlarga amal qilgan holda, bir-biriga o‘xshamagan rang-barang dars o‘ta olishi o‘quvchilarga bilim berayotganda interfaol usullaridan darsning qaysi bosqichida qanday turidan foydalana olishi kerakligini bilishi lozim. Hozirgi kunda o‘z burchini chuqur his qilgan o‘qituvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Mana shunday o‘qituvchilar safidan respublikamizning turli shahar va tumanlaridan yetishib chiqayotgan umumta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari ham katta o‘rin

egallagan. Bu o'qituvchilar mana bir necha yillardan beri o'zlari istiqomat qilayotgan shahar va tumanlaridagi maktablarda yoshlarga o'zi sevgan fanlardan dars berib kelishmoqda.

Mazkur o'qituvchilar bugungi kunda "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol usullarni qo'llash samaradorligi" muammosini o'rganib, sho'ba yig'ilishlarida o'z ma'ruzalari bilan qatnashib kelishyapti. Ular darslarida muammolarga nisbatan maqsad va vazifalarni tanlay olishadi. Mavzuni o'tishda uning ilmiyligiga, tarbiyaviy mohiyatiga katta e'tibor beradilar. Natijada o'qituvchi yutuq va samaradorlikka erishadi. Dars jarayonida ular yangi pedagogik texnologiyaning barcha usullaridan samarali foydalanadi. Shuningdek, shahar, tuman gazeta va jurnallarida o'z maqolalari bilan qatnashib turishadi. Ularning turli mavzulardagi ilmiy, metodik mulohazalari, tavsiya va takliflari jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinmoqda. Umuman olganda, ijodkor o'qituvchi tinimsiz izlanishda bo'lishi, o'quvchilar bilimi, savodxonligi, ko'nikma va malakalarining oshishida samarali mehnat qilishi zamon talabidir.

Shu kabi ilg'or o'qituvchilar fikr-mulohazalariga tayangan holda biz Farg'ona shahar 3-umumta'lim maktabining boshlang'ich 1-4 sinflarida tadqiqot ishlarini olib bordik. Tadqiqot ishimizga 85 nafar o'quvchilar va 10 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilarini jalb qildik. Tadqiqotimizda quyidagi vazifalarni amalga oshirdik.

Boshlang'ich sinf darsliklaridan foydalanib, ma'nodosh so'zlarni o'ganishga mos keladigan mashq va topshiriqlar bo'yicha bir necha vosita va usullarni ishlab chiqdik.

1. Nuqtalar o'rniga mos keladigan ma'nodosh so'zlarni topish.
2. Ajratilgan so'zlarning o'rniga qavs ichida berilgan ma'nodoshlaridan birini qo'yish.
3. Berilgan so'zlarning ma'nodoshlarini topib yozish.
4. Ma'nodosh so'zlardan sinonimik qator hosil qilish va ularni jadvalga joylashtirish.
5. Didaktik o'yinlar o'tkazish.

6. Kompyuterda ma'nodosh so'zlarga oid o'yinlarni tashkil etish.

7. Mavzuga doir taqdimotlardan foydalanish kabi.

4-"A"sinfda 41 nafar o'quvchi 5 ta guruhlariga bo'lindi. 1- guruh «Lola», 2- guruh «Quyosh», 3-guruh «Sevinch», 4-guruh «Lochin», 5-guruh «Burgut» so'ngra guruh sardorlari saylandi. Har bir guruh sardoriga 2 tadan savol qo'yildi. O'quvchilar erkin bahs-munozaraga kirishdi.

Shu bilan birgalikda og'zaki va yozma mashqlar bajarildi.

Tadqiqot davomida didaktik o'yinlar, sirli so'z o'yinlari, katakchani to'ldir kabi o'yinlar o'quvchilarning ma'nodosh so'zlarni tez va oson o'zlashtirishiga yordamlashdi.

O'quvchilar so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari,ayniqsa ma'nodosh so'zlarga doir mashqlarni bajarishdi. Grammatik o'yinlarda faol ishtirok etishdi.

Rebus, krassvord o'yinlari o'tkazildi.

Ma'nodosh so'zlar ko'proq ishtirok etishi kerak bo'lgan hikoya va matn tuzish berildi.

Bunda beshta o'quvchi ishtirok etdi.

Har bir o'quvchi qo'lga qalam, ruchka, qog'oz berildi. Ko'rsatilgan predmetga ta'rif berilishi so'raldi. Hikoya tuzish yoki dialogik nutq qilish ham so'raldi.

Qani, o'rtoqjon To'lqin shu gulimga qanday so'zlar qo'sha olasan?

- Gul so'ziga bitta she'r aytchi. Gulni chambarchas qilib taqib oladi.

Gullar ko'p gulzorda,

Qani tering-chi qizlar.

Qani ayting-chi menga

Guldan ham go'zal, chiroyli, maftunkordir so'zlar.

O'quvchilar juda tez she'r to'qishga, so'zlar qatorini to'g'ri hosil qilishga oshiqdirlar. Mavzuni tez o'zlashtirdilar.

Biz testlar asosida savol-javob qildik. Nazorat sinfi o'quvchilari ham bir muncha o'zlashtirishga erishdilar.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda tajriba ishlarimizni quyidagilarga qaratdik.

1. Tajriba guruhlariga 41 nafar o'quvchi, nazorat guruhlariga 44 nafar o'quvchini jalb etdik.

2. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ma'nodosh so'zlar bo'yicha topshiriqlar test asosida o'tkazildi.

3. Tajriba guruhlarida 82,2 foiz o'zlashtirishga, nazorat sinfi esa 69,7 foiz o'zlashtirishga erishdilar.

UMUMIY XULOSALAR

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor bera boshladi. O'zbek tilining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, «Davlat ta'lim standartlari»ning chop etilishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish, o'quvchi - ta'lim - o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

Ona tili o'qitishning asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy - ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy g'oyani, tarbiyani shakllantirish; o'quvchi shaxsini ma'naviy va zamonaviy rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingach, ijtimoiy hayotda tub o'zgarishlar, jamiyat hayotida keskin burilishlar yuzaga keldi. Garchi 1992-yildayoq «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilinganiga qaramay ko'p o'tmasdan uning jamiyatdagi rivojlanishning talab va ehtiyojlariga mos kelmasligi ma'lum bo'lib qoldi. Shuning uchun ham 1997-yilda yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun yuzaga keldi. Ushbu Qonun ta'lim tizimida yuzaga kelgan yangiliklarning huquqiy asoslarini ko'rsatib berdi.

"Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasining Qonunlar hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi

1998-yil 13-maydagi 203-sonli qarori ona tili o'qitishning ijtimoiy - siyosiy va dasturiy asosi bo'ldi.

Ona tilidan an'anaviy, noan'anaviy darslarni tashkil qilishda ta'lim vositalari alohida ahamiyatga ega. Bulardan darslik ta'limning eng muhim vositasi hisoblanadi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablari amaliyotidagi «Ona tili» fani darsliklari ta'lim jarayoni subyekti - o'quvchi. O'quvchi bu jarayonning boshqaruvchisi prinsipida tuzilgan. Zero, ta'lim jarayoniga hozirgi davr taqozosi shuni talab qiladi.

Til sathlarini o'rganishda o'quvchilar bilimini oshirishning eng samarador usullaridan biri bu - so'zlarning ma'no guruhlarida ustida ishlashdir. So'zning hosil bo'lishi, talaffuzi, ma'nosi, imlosi va nutqda qo'llanilishini o'zaro chambarchas aloqadorlikda o'rganish amaliy maqsadlarga xizmat qiladi. Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O'quvchilar so'z tarkibi bilan tanishib borish orqali so'zning asosi xususida umumlashma tushuncha hosil qiladilar. Bu esa so'z va uning ma'nolarini puxta o'rganish uchun zamin hozirlaydi. Ayniqsa, nazariy bilimlar haqida ma'lumotga ega bo'lib borishlari bilan birga o'quvchilarda so'z ustida ishlash imkoniyatlari ham kengayib boradi.

So'zning ma'no jilolari nutqda namoyon bo'lib, uni yuzaga keltiruvchi lisoniy asoslar bor. Bunday asoslar tilshunoslikda ma'nodoshlik, shakldoshlik, ziddoshlik nomlari ostida til hodisalari sifatida tadqiq etiladi. Ular nasriy va nazmiy nutqlarning go'zalligini ta'minlaydi.

Biz yuqoridagi lisoniy hodisalarning so'zlar doirasida namoyon bo'lishini ko'rib o'tdik. Bu hodisalar iboralar doirasida, ko'makchilar doirasida, sintaktik butunliklar doirasida ham yuzaga chiqishi mumkin. Lekin ular alohida tadqiqotni talab qilganligi uchun, biz faqat so'zlar munosabatini ko'rsatdik xolos.

Umuman, nutqiy go'zallik va teranlikni yuzaga keltiruvchi asoslar xilma-xil bo'lib, ular turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Ularning turlari va xususiyatlarini har bir inson bilishi hamda undan foydalanishi mumkin. Bu esa jamiyatimizning ma'naviy yuklasilishini ta'minlaydigan poydevoridir.

Ma'noning torayishi va kengayishiga dastlab, lingvistik asoslar, ikkilamchi tarzda ekstralingvistik asoslar ta'sir etadi. Lingvistik asoslarni butun leksik sistema hodisalari tashkil etadi. Ayniqsa metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, troplar, giperbola, polisemiya, monosemiya, okkozionalizm, konversiyalar kabi hodisalarning ta'siri orqali ma'noning o'zgarishi o'ziga xos tarzda kechadi. Shuni unutmaslik kerakki, ma'noning o'zgarishiga bir vaqtning o'zida ham lingvistik, ham ekstralingvistik asoslar ta'sir etadi.

O'quvchi leksik tahlil jarayonida so'zning lug'aviy ma'nolari haqida o'zi mustaqil fikr yuritadi. Shu so'zga ma'nodoshlarni o'zi izlaydi, iloji bo'lsa, boshqa tildagi tarjimasini topadi. Shu so'z ishtirok etgan gap quradi va matn yaratadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ravon, aniq, ta'sirchan uslub tuyg'usi tilning barcha sohalarini o'rganish jarayonida, til birliklarida (tovush, so'z, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik qurilmalarda), so'zlarning ma'no va shakl munosabatlari asosidagi bog'lanishlarni taqqoslash zaminidagina shakllanadi. O'quvchi ongida ana shu xususiyatni tarkib toptirish barcha ona tili o'qituvchisining diqqat markazida bo'lishi lozim. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlarining bosh maqsadi so'z boyligini oshirish va uni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, til bo'limlarini o'rganishni uslubiyat bilan bog'liq holda olib borish taqozo etiladi.

Xullas, sinonimlar tilning lug'aviy boyligini, ko'rkamligini belgilovchi vositalardan biri bo'lib, ular nutq jarayonida o'rinsiz takrordan, uslubiy g'alizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'quvchining nutqiy taraqqiyotida shakldosh so'zlarning har biriga ma'nodosh so'zlar tanlash, ular ishtirokida so'z birikmasi va gap tuzish, so'z o'yinlari tashkil qilish, tuyuqlar va hikmatli so'zlar, maqol va matallar ustida ishlash; turli izohli lug'atlardan foydalanib, so'z ma'nolarini sharhlash, xilma - xil iboralar, matnlar yaratish kabi amaliy ishlarni bajarish o'z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Yosh avlod - kelajagimiz poydevori. – Toshkent, 2007.
4. Abdurahmonov M. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Samarqand, 1969. - B.29. (grammatik razbor).
5. Akbarov N. O'qituvchining pedagogik mahorati. // Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2-son. – Toshkent, 2007.
6. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent, 1985.
7. Bozorboyeva M. Fanlararo uzviylikni ta'minlash // Boshlang'ich ta'lim jurnali, 1-son. – Toshkent, 2005.
8. Fuzaylov S., Xudaybergenova N. Ona tili darsligi. 3-sinf uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.
9. Hojiyeva R. 4-sinfda so'z tarkibi mavzusini o'tish. / Ona tili o'qitish samaradorligini oshirish. – T.: O'qituvchi, 1973. -B.90-97
10. Ikromova R., G'ulomova X., Yuldashev Sh, Shodmonqulova D. Ona tili darsligi, 4-sinf uchun. –T .: O'qituvchi, 2003.
11. Mahmudov M.I. Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish. – Toshkent, 1981, -B.15.
12. Mirzayev M. va boshqalar. O'zbek tili. T., 1978. -B.17-26.
13. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. Toskent, 1975.
14. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T., 1995.
15. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya. NDA. –T ., 1996.
16. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. –Toshkent, 1982.
17. Qilichev B. O'zbek tilida partonimiya. –Toshkent, 1997.

18. Qosimova B., Fuzaylov S, Ne'matova A. Ona tili darsligi. 2-sinf uchun. –T.: Cho'lpon, 2004.
19. Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. –Toshkent, 1977.
20. Roziqov O. O'zbek tilidan dars tiplari (metodik qo'llanma). –T.: O'qituvchi, 1976.
21. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. –Toshkent, 1966.
22. Tolipova R. Ta'lim jarayonida modulli texnologiya // Boshlang'ich ta'lim jurnali, 3-son. –Toshkent, 2001.
23. To'xliyev B., Shamsiyeva B., Ziyadova –T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
24. Ubayxo'jayeva R. Ona tili darslarida noan'anaviylik. Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2-son. –Toshkent, 2005.
25. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. –T.: Sharq, 2010.
26. Yo'ldosheva N. Mustaqil ta'lim va tafakkur. Boshlang'ich ta'lim jurnali, 10-son. –Toshkent, 2006.
27. Ziyadova U. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish omillari O'zbek tishunosligiga oid tadqiqotlar. 6-son. –Toshkent, 1994.
28. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1997.
29. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni. Til va adabiyot ta'limi, 1997. 1-son.
30. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. –T.: O'qituvchi, 1995.
31. Mualliflar jamoasi. O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent, 1981. -B.4-10.
32. G'afforova T., Shodmonov Y., G'ulomova X. Ona tili darsligi. 1-sinf uchun. –Toshkent, 2005.
33. G'ulomov A. Ona tili o'qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. –Toshkent, "Fan", 1989. -B.67.
34. G'ulomov A., Ne'matov H. "Induktiv". O'zbek tili dasturi. –T., 1992.
35. G'ulomov A., Shukurov Sh. Ona tilidan o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish. –Toshkent, O'qituvchi, 1989. -B.90.

35. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. –Toshkent, 1995. -B.26.
36. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Universitet, 2001. -B. 29.
37. G'ulomov Yo., Rasulov I., Rustamov H., Mirzahmedov B. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1975.
38. Shokirov B., Mahkamov F. O'qitishning zamonaviy usullari //Boshlang'ich ta'lim jurnali, 1-son. –Toshkent, 2005.
39. www.ziynet.uz
40. www.ziyo.uz.com